# Xalq so‘zi

O‘zbekiston — kelajagi buyuk davlat

## 2023-YIL — INSONGA E’TIBOR VA SIFATLI TA’LIM YILI

1991-yil 1-yanvardan chiqa boshlagan ● WWW.XS.UZ ● E-mail: Info@xs.uz ● 2023-yil 29-dekabr, № 279 (8622) Juma

Saytimizga o‘tish uchun QR-kodini telefoningiz orqali skaner qiling.


## IKKI TOMONLAMA MUNOSABATLAR JADAL RIVOJLANAYOTGANI QAYD ETILDI

**28-dekabr kuni O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev va Turkman xalqining milliy yetakchisi, Turkmaniston Xalq Maslahati Raisi Gurbanguli Berdimuhamedovning telefon orqali muloqoti bo‘lib o‘tdi.**

Suhbat avvalida O‘zbekiston Prezidenti va Turkman xalqining milliy yetakchisi, Turkmaniston Xalq Maslahati Raisi bir-birini yaqinlashib kelayotgan Yangi yil bayrami bilan dildan qutlab, qardosh xalqlarimizga tinchlik-osoyishtalik, farovonlik va ravnaq tilaklarini bildirdilar.

Davlatimiz rahbari Turkmaniston Prezidenti Serdar Berdimuhamedovga o‘zining samimiy salomi va eng ezgu tilaklarini yo‘lladi.

O‘zbekiston bilan Turkmaniston o‘rtasidagi do‘stlik, yaxshi qo‘shnichilik va chuqurlashgan strategik sheriklik munosabatlarini yanada rivojlantirishning dolzarb masalalari muhokama qilindi. Ilgari erishilgan, shu jumladan, parlamentlararo muloqot doirasidagi kelishuvlar ijrosining borishi muhokama qilindi.

Tomonlar barcha ustuvor yo‘nalishlarda o‘zaro manfaatli hamkorlik sezilarli faollashganini katta mamnuniyat bilan qayd etdilar.

O‘zaro savdo hajmi oshmoqda — 2023-yil yakuni bilan tovar ayirboshlash 1 milliard dollardan ortadi. Poytaxt Toshkent va Ashxobod shaharlarida savdo uylari ochildi, birgalikda “Shovot — Toshovuz” chegaraoldi savdo zonasini barpo etish bo‘yicha ishlar davom etmoqda.

Sanoat, energetika, qishloq xo‘jaligi, transport sohalarida ikki mamlakat yetakchi korxonalarining kooperatsiyasi kuchaymoqda, hududlararo aloqalar kengaymoqda. Joriy yilda Hukumatlararo komissiya va Ishbilarmonlar kengashining navbatdagi yig‘ilishlari muvaffaqiyatli o‘tkazildi.

Qo‘shma madaniy-gumanitar tadbirlar, shu jumladan, Madaniyat kunlari va ijodiy jamoalarning safarlari o‘tkazilmoqda.

Markaziy Osiyodagi mintaqaviy hamkorlikning amaliy jihatlari yuzasidan ham fikr almashildi. 2024-yilga mo‘ljallangan uchrashuvlar rejasi ko‘rib chiqildi.

**O‘zA.**

## “FORBES” JURNALI O‘ZBEKISTONNI ENG YAXSHI SAYYOHLIK YO‘NALISHLARI RO‘YXATIGA KIRITDI





*Dunyodagi eng ommabop va nufuzli iqtisodiy nashrlardan biri — AQSHning “Forbes” jurnalida 2024-yilda, albatta, borib ko‘rish kerak bo‘lgan jahondagi ajoyib sayyohlik yo‘nalishlariga bag‘ishlangan maqola bosildi.*

**Biz va jahon**

“Forbes” O‘zbekistonni 2024-yilda sayohat qilish uchun eng yaxshi yo‘nalishlar ro‘yxatiga kiritgan. Ya’ni jurnal o‘z o‘quvchilariga O‘zbekistonni 2024-yilda tashrif buyurish uchun eng yaxshi joylardan biri sifatida qayd etib, yurtimizga sayohat qilishni tavsiya etmoqda.

Maqolada dunyodagi yetakchi “Lonely Planet” sayyohlik nashri vitse-prezidenti Tom Xollning quyidagi so‘zlari iqtibos o‘rnida keltirilgan: “O‘zbekistonda Ipak yo‘lining eng yaxshi saqlanib qolgan tarixiy obidalarini, shuningdek, ajoyib tog‘lar va istiqbolli poytaxt Toshkentni ko‘rishingiz mumkin”.

Bundan tashqari, maqolada mamlakat hududlari bo‘ylab sayohat qilish uchun qulay va arzon poyezd xizmatlari yo‘lga qo‘yilgani aytilgan.

“AQSHdan O‘zbekistonga sayohat qiluvchilar uchun Nyu-York shahridan haftasiga bir nechta to‘g‘ridan-to‘g‘ri aviareyslar yo‘lga qo‘yilgan. Shuningdek, Seul va Istanbul orqali borish ham sayyohlar uchun qulayliklar yaratadi”, deyiladi nashrda.

Qayd etish joizki, “Forbes” O‘zbekistonni 2022-yilda sayohat qilish uchun eng yaxshi 50 ta hudud ro‘yxatiga kiritgan edi.

Eslatib o‘tamiz, “Forbes” jurnali dunyodagi eng nufuzli iqtisodiy nashrlardan biridir. “Forbes” — AQSHda 900 ming nusxadan ortiq adadi bilan “Bloomberg Businessweek”dan keyin ikkinchi yirik biznes jurnali hisoblanadi.

Jurnal ishbilarmonlik olamidagi dadil izlanishlari va voqealarga obyektiv baho berishi, shuningdek, turli ro‘yxatlar va reytinglarni e’lon qilib borishi tufayli ham e’tirofga sazovor bo‘lgan. Jurnalning har bir sonida kompaniyalar va ularning ijodkor menejerlari haqida 60 dan ortiq tahliliy maqolalar chop etiladi. “Forbes”ning umumiy auditoriyasi butun dunyo bo‘ylab salkam 5 million kishini tashkil qiladi.

**“Dunyo” AA.**
Vashington

O‘zbekiston Respublikasining
QONUNI

## Soliq va budjet siyosatining 2024-yilga mo‘ljallangan asosiy yo‘nalishlari qabul qilinganligi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida

Qonunchilik palatasi tomonidan 2023-yil 15-dekabrda qabul qilingan
Senat tomonidan 2023-yil 20-dekabrda ma’qullangan

Soliq yukini izchillik bilan kamaytirish, soliq solish tizimini va bojxona tartib-taomillarini soddalashtirish, shuningdek soliq va bojxona ma’muriyatchiligini takomillashtirish iqtisodiyotni jadal rivojlantirish hamda mamlakatning investitsiyaviy jozibadorligini yaxshilashning eng muhim shartlari hisoblanadi.

Keyingi yillarda mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan rivojlantirish, tadbirkorlarni qo‘llab-quvvatlash hamda ular uchun teng raqobat sharoitlarini yaratish maqsadida jadal islohotlar amalga oshirilmoqda, soliq yukini pasaytirish, shuningdek soliq va bojxona ma’muriyatchiligini yanada takomillashtirish bo‘yicha keng ko‘lamli choralar ko‘rilmoqda.

Mazkur Qonunda 2024-yil uchun soliq siyosatining asosiy yo‘nalishlari belgilanib, bunda Prezidentimizning tadbirkorlar bilan ochiq muloqoti doirasida biznes yuritishni soddalashtirish, soliq yukini kamaytirish yuzasidan belgilab berilgan topshiriqlari, xususan, mahalliy ishlab chiqaruvchilarning raqobatbardoshligini oshirish, o‘zini o‘zi band qilgan shaxslarga soliq solish tartibini takomillashtirish, qo‘shilgan qiymat solig‘i zanjirining uzluksizligini ta’minlash, tabiiy boyliklardan samarali va oqilona foydalanish, mutlaq summada belgilangan soliq stavkalarining kutilayotgan inflyatsiya darajasidan kelib chiqqan holda indeksatsiya qilinishi nazarda tutilmoqda. Shu bilan birga ushbu Qonun bilan ota-onalarning o‘z farzandlari professional va oliy ta’lim tashkilotlarida ta’lim olishi uchun to‘lovga yo‘naltiriladigan daromadlari soliq solishdan ozod qilinishini, shuningdek chet davlat avtotransport vositalarining mamlakatimiz hududiga kirganligi hamda tranziti uchun yig‘im bojxona hududida ham to‘lanishi mumkinligini nazarda tutuvchi o‘zgartirishlar kiritilmoqda.

Ushbu Qonun 2024-yil va keyingi yillar uchun Davlat budjetini tayyorlashda nazarda tutilgan soliq siyosatining asosiy yo‘nalishlarini amalga oshirish uchun zarur huquqiy shart-sharoitlar yaratilishiga xizmat qiladi.

**(Davomi 2, 3-betlarda).**

**Senat qo‘mitasida**

## SURXON VOHASINING TURIZM SALOHIYATI QAY DARAJADA?

*Oliy Majlis Senatining Xalqaro munosabatlar, tashqi iqtisodiy aloqalar, xorijiy investitsiyalar va turizm masalalari qo‘mitasi majlisida “Turizm to‘g‘risida”gi Qonunning Surxondaryo viloyatidagi ijrosi holatini o‘rganish natijalari ko‘rib chiqildi.*



Qayd etilganidek, viloyatda qonun ijrosini samarali ta’minlash, mehmonxona infratuzilmasi va xo‘jaligini rivojlantirish borasida salmoqli ishlar amalga oshirilgan. Xususan, keyingi besh yilda 170 ta yangi joylashtirish obyekti tashkil etilgan bo‘lsa, 2023-yil 1-noyabr holatiga ko‘ra ularning soni 197 taga yetdi. Ayni chog‘da 9 ta turistik axborot markazi faoliyat yuritayotir.

Agar 2017-yilda sayyohlar 48 ta sayyohlik obyektiga tashrif buyurgan bo‘lsa, joriy yilda bu ko‘rsatkich 116 ta bo‘ldi. Sayyohlar oqimini ko‘paytirish maqsadida respublika aviakompaniyalari tomonidan Toshkent — Termiz — Toshkent yo‘nalishi bo‘yicha har kuni parvozlar yo‘lga qo‘yilgan.

Keyingi bir necha yillarda sayyohlik maskanlariga tutash hududlarda 60 kilometrdan ortiq ichki yo‘llar ta’mirlanib, bu maqsadlar uchun budjetdan 23 mlrd. so‘mdan ortiq mablag‘ yo‘naltirilgan. Birgina joriy yilning o‘zida Termiz shahri, Sherobod, Boysun va Denov tumanlari markazlarida qator “sayyohlik ko‘chalari” tashkil etildi. Bu yil viloyatga 1,1 milliondan ko‘p mahalliy hamda 593 ming xorijiy sayyoh tashrif buyurgan va ularga 17,1 milliard dollardan ortiq miqdorda xizmatlar ko‘rsatilgan.

Tadbirda senatorlar tomonidan tadbirkorlik subyektlari faoliyatini murakkablashtiradigan ayrim normativ-huquqiy hujjatlar normalari mavjudligiga ham e’tibor qaratildi. Qolaversa, kurort va rekreatsion hududlarda xizmat ko‘rsatish sifatining yetarli darajada emasligi hamda muhandislik-transport infratuzilmasining rivojlanmaganligi yoki past darajada ekanligi ham tashvishlidir.

Viloyatda sayyohlarni keng jalb etish uchun 34,5 kilometr uzunlikda yo‘l qurish, 14 kilometrlik yo‘lni rekonstruksiya qilish, 1 ta ko‘prik barpo etish zarurligi aytildi. Ayni chog‘da 8 ta transformator punktini rekonstruksiya qilish, oqova suvlarni saqlash va tozalash inshootlarini modernizatsiyalash, sayyohlik maskanlarida qo‘shimcha 14 ta uyali aloqa bazasini o‘rnatish masalalari ham dolzarb sanaladi.

Yig‘ilishda tibbiy turizm bo‘yicha ishlatilmagan salohiyatdan unumli foydalanish zarurligiga ham urg‘u berildi. Qolaversa, mintaqaviy turizm mahsulotlarini Janubiy Koreya, Yaponiya, Xitoyning istiqbolli bozorlarida ziyorat turizmi sohasida ilgari surish uchun alohida marketing strategiyasini ishlab chiqish zarurligi yuzasidan fikr-mulohazalar bildirildi.

Muhokamalar yakuni bo‘yicha Senat qo‘mitasi qarori qabul qilindi hamda Surxondaryo viloyatining turizm salohiyatini yanada rivojlantirish, sayyohlar uchun qulay shart-sharoit yaratish, mahalliy va xorijiy sayyohlarni jalb etish bo‘yicha “Yo‘l xaritasi” tasdiqlandi.

**“Xalq so‘zi”.**

**Oliy Majlis Qonunchilik palatasida**

## DOLZARB QONUN LOYIHALARI KO‘RIB CHIQILDI

*Kecha Oliy Majlis Qonunchilik palatasining navbatdagi majlisi bo‘lib o‘tdi. Unda dastlab Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning “yashil” energetika sohasidagi yirik qo‘shma loyihalarni ishga tushirishga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi nutqiga alohida to‘xtalib o‘tildi. O‘zbekistonda energetika tizimini isloh qilish va barqarorligini kuchaytirish bo‘yicha keng ko‘lamli dastur amalga oshirilayotgani, mamlakatimizda umumiy quvvati 2,4 gigavattlik “yashil” elektr stansiyalari ishga tushirilgani alohida e’tirof etildi. Shuningdek, jamiyat hayotiga oid bir qator dolzarb qonun loyihalari atroflicha ko‘rib chiqildi.*



### Bojxona qiymatini aniqlash bilan bog‘liq normalar xalqaro standartlarga muvofiqlashtirilmoqda

Majlisda “O‘zbekiston Respublikasining Bojxona kodeksiga bojxona tartib-taomillarini yanada takomillashtirishga qaratilgan o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi qonun loyihasi ikkinchi o‘qishda ko‘rib chiqildi.

Keyingi yillarda mamlakatimizda tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirishni yengillashtirish va rag‘batlantirish maqsadida sohaga oid qator tartib-taomillar tanqidiy jihatdan qayta ko‘rib chiqilib, eskirgan, zamon talablariga javob bermaydiganlari hamda byurokratik g‘ovlar va to‘siqlar bekor qilindi. Ko‘rilgan choralar natijasida ishbilarmonlik muhiti yaxshilandi, tadbirkorlik subyektlari va xususiy investorlar uchun keng imkoniyatlar yaratildi.

Shu bilan birga, qonunchilikni xalqaro normalarga, jumladan, Bojxona tartibotlarini soddalashtirish va uyg‘unlashtirish to‘g‘risidagi xalqaro konvensiya (Kioto, 1973-yil 18-may, 1999-yil 26-iyundagi o‘zgartirishlar bilan), Jahon savdo tashkilotining Bojxona tartibotlarini soddalashtirish to‘g‘risidagi bitimi va Jahon bojxona tashkiloti qoidalariga muvofiqlashtirish orqali tashqi savdoni yanada liberallashtirish zarurati mavjud.

Majlisda qayd etilganidek, Jahon savdo tashkilotining asosiy vazifasi — erkin va shaffof savdo munosabatlarini tartibga solish hamda uni kengaytirish orqali davlatning taraqqiyotini ta’minlash va insonlar turmushini yaxshilashga qaratilgan.

→ 3

## “PREZIDENT SOVG‘ASI” — OROLBO‘YIDA

*Ayni kunlarda mamlakatimizning barcha hududida oilaviy mehribonlik uylari tarbiyalanuvchilari, ota-ona qaramog‘idan ayrilgan, ijtimoiy himoyaga muhtoj oilalarning farzandlari uchun Prezident sovg‘alari topshirilmoqda.*

**Tuhfa**

“Prezident sovg‘asi” tarkibiga davlatimiz rahbarining bolalarga yo‘llangan Yangi yil bayrami tabrigi, 17 turdagi shirinliklar, 2 turdagi o‘quv qurollari, smart soat, darts magnit taxtasi va 12 yoshdan kattalar uchun planshet kiritilgan.

Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qorg‘i Kengesi Raisi Amanbay Orinbayev Taxiatosh tumanidagi oilaviy bolalar uylariga tashrif buyurib, tarbiyalanuvchilarni Yangi yil bilan tabrikladi, Prezident sovg‘alarini taqdim etdi.

Ma’lumotlarga ko‘ra, hozirgi kunda Taxiatosh tumanidagi 1-oilaviy bolalar uyida 6 nafar, 2-oilaviy bolalar uyida 9 nafar bola tarbiyalanib voyaga yetmoqda.

Ta’kidlandiki, bolalar har doim davlatimiz rahbari e’tibori hamda g‘amxo‘rligi ostida. Ularning har tomonlama yetuk, zamon bilan hamnafas, komil inson bo‘lib ulg‘ayishi uchun barcha imkoniyat yaratilgan.

Qish ziynatlari bilan bezatilgan Yangi yil archasi atrofida tashkil etilgan bayram tadbiri davomida bolajonlar tomonidan tayyorlangan sahna ko‘rinishlari va musiqali chiqishlar mehmonlarga manzur bo‘ldi.

**G‘ayrat OTAJONOV**
**(“Xalq so‘zi”).**

## “YASHIL” ENERGETIKA — mamlakatimiz taraqqiyotida muhim omil



*Bugun insoniyat yangi tahdidlar oldida turibdi. Yer shari aholisi muttasil ko‘payishda davom etyapti, tabiiy resurslar zaxirasi esa shiddat bilan qisqarmoqda. Bu esa dunyo mamlakatlarini tang ahvolga solib qo‘yayotir. Shu bois jahon bo‘yicha katta kuch bilan “yashil” energetika (qayta tiklanuvchi energiya manbalari) tizimiga o‘tishga urg‘u berilmoqda. Buning ikki muhim asosiy sababi bor. Avvalo, sal ilgariroq aytib o‘tilganidek, dunyo miqyosida energiya hosil qiladigan manbalar tugab borayotgani bo‘lsa, ikkinchi sababi — atmosferaga zararli chiqindi gazlar chiqarilishi hisobiga havoning keskin ifloslanishi va global iqlim muammolari vujudga kelayotgani.*

**Aks sado**

Ekspertlar vaziyatni o‘nglash uchun jahon iqtisodiyotida “yashil taraqqiyot” tamoyilini joriy etish zarurligini ta’kidlamoqda. Mazkur yondashuv BMTning Barqaror rivojlanish maqsadlarida ham o‘z ifodasini topgan. Bu borada yurtimizda ham davlatimiz rahbari boshchiligida katta islohotlar olib borilayotir.

Ma’lumki, 2019-yilda O‘zbekiston “Yashil” iqtisodiyotga o‘tish strategiyasini qabul qildi. Unda yaqin o‘n yilda mamlakatda uglerod sarfini keskin kamaytirish, iqtisodiyotning barcha tarmog‘ida ekologik toza va resurstejamkor texnologiyalarni joriy etish, qayta tiklanuvchi, samarali energiya manbalaridan keng foydalanish ko‘zda tutilgan.

Tadqiqotlardan ma’lum bo‘lishicha, O‘zbekistonda uglevodorod energiyasi — neft, gaz, ko‘mirdan foydalanish hisobiga har yili yalpi ichki mahsulotning kamida 4,5 foizi yo‘qotilmoqda. Qolaversa, mamlakatdagi energiya ishlab chiqaruvchi quvvatlarning salkam yarmi eskirgan. Ularni tiklash yoki modernizatsiyalash katta mablag‘ talab qiladi. Buning o‘rniga ham iqtisodiy, ham ekologik jihatdan samarali bo‘lgan “yashil” energetikaga o‘tish ming chandon afzal. Zero, butun dunyoda shu yo‘l tanlanyapti.

E’tiborlisi, O‘zbekiston Markaziy Osiyo davlatlari orasida birinchi bo‘lib mazkur harakatga qo‘shildi. Mohiyatan olib qaraganda, ikki yil avval qabul qilingan “Yashil” iqtisodiyotga o‘tish strategiyasi yurtimizning “yashil” taraqqiyot sari yuz burganini anglatadi.

→ 4

O'zbekiston Respublikasining
QONUNI

# Soliq va budjet siyosatining 2024-yilga mo'ljallangan asosiy yo'nalishlari qabul qilinganligi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida

(Davomi. Boshlanishi 1-betda).

**1-modda.** O'zbekiston Respublikasining 1992-yil 9-dekabrda qabul qilingan **"Tabiatni muhofaza qilish to'g'risida"**gi 754–XII-sonli Qonuni (O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining Axborotnomasi, 1993-yil, № 1, 38-modda; O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1995-yil, № 6, 118-modda; 1997-yil, № 4–5, 126-modda; 1999-yil, № 1, 20-modda; 2000-yil, № 5–6, 153-modda, № 7–8, 217-modda; 2002-yil, № 9, 165-modda; 2003-yil, № 9–10, 149-modda; 2004-yil, № 5, 90-modda; 2005-yil, № 1, 18-modda; O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining Axborotnomasi, 2006-yil, № 10, 536-modda; 2011-yil, № 1, 1-modda, № 9, 247-modda; 2013-yil, № 4, 98-modda; 2014-yil, № 9, 244-modda; 2017-yil, № 6, 300-modda, № 9, 510-modda; 2018-yil, № 4, 224-modda; 2019-yil, № 9, 591-modda, № 11, 792-modda; 2021-yil, 4-songa ilova, № 10, 968-modda) **33-moddasi birinchi qismining uchinchi xatboshisidagi** "o'ziyurar mashinalar va ularning tirkamalari" degan so'zlar "o'ziyurar mashinalar va ularning tirkamalari, pnevmatik rezinali shinalar va pokrishkalar" degan so'zlar bilan almashtirilsin.

**2-modda.** O'zbekiston Respublikasining 2002-yil 5-aprelda qabul qilingan **"Chiqindilar to'g'risida"**gi 362–II-sonli Qonunining (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 2002-yil, № 4–5, 72-modda; 2003-yil, № 5, 67-modda, № 9–10, 149-modda; O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining Axborotnomasi, 2007-yil, № 12, 604-modda; 2011-yil, № 1, 1-modda, № 9, 247-modda; 2017-yil, № 9, 510-modda; 2018-yil, № 4, 40-modda, № 10, 671-modda; 2019-yil, № 9, 591-modda, № 11, 792-modda; 2021-yil, 4-songa ilova) **231-moddasiga** quyidagi o'zgartirishlar kiritilsin:

**birinchi qismdagi** "o'ziyurar mashinalar va ularning tirkamalari" degan so'zlar "o'ziyurar mashinalar va ularning tirkamalari, pnevmatik rezinali shinalar va pokrishkalar" degan so'zlar bilan almashtirilsin;

**ikkinchi qism** quyidagi tahrirda bayon etilsin:

«Utilizatsiya yig'imi:

O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Bojxona qo'mitasi tomonidan – g'ildirakli transport vositalari, o'ziyurar mashinalar va ularning tirkamalari, pnevmatik rezinali shinalar va pokrishkalar "erkin muomalaga chiqarish (import)" bojxona rejimiga joylashtirilganda;

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Soliq qo'mitasi tomonidan – O'zbekiston Respublikasi hududida realizatsiya qilinadigan g'ildirakli transport vositalari, o'ziyurar mashinalar va ularning tirkamalari, pnevmatik rezinali shinalar va pokrishkalar ishlab chiqarilganda (yig'ilganda, tayyorlanganda) undiriladi»;

**uchinchi qismdagi** "o'ziyurar mashinalarning va ular tirkamalarining" degan so'zlar "o'ziyurar mashinalarning va ular tirkamalarining, pnevmatik rezinali shinalar va pokrishkalarning" degan so'zlar bilan almashtirilsin;

**to'rtinchi qismdagi** "o'ziyurar mashinalar va ularning tirkamalari" degan so'zlar "o'ziyurar mashinalar va ularning tirkamalari, pnevmatik rezinali shinalar va pokrishkalar" degan so'zlar bilan almashtirilsin.

**3-modda.** O'zbekiston Respublikasining 2016-yil 20-yanvarda qabul qilingan O'RQ–400-sonli Qonuni bilan tasdiqlangan **O'zbekiston Respublikasining Bojxona kodeksi** (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining Axborotnomasi, 2016-yil, 1-songa ilova; 2017-yil, № 9, 510-modda; 2018-yil, № 4, 224-modda, № 7, 433-modda, № 10, 670-modda; 2019-yil, № 1, 5-modda, № 2, 47-modda, № 5, 267-modda, № 9, 589-modda, № 10, 671-modda, № 12, 880-modda; 2020-yil, № 10, 593-modda; 2021-yil, 4-songa ilova, № 10, 969-modda; 2022-yil, № 2, 75-modda, № 7, 666-modda, № 12, 1190-modda) **327-moddasining to'rtinchi qismi** quyidagi tahrirda bayon etilsin:

"To'lanishi bojxona rasmiylashtiruvi bilan bog'liq bo'lmagan bojxona yig'imlari bojxona organlari tomonidan tegishli harakatlar yoki tartib-taomillar bajarilguniga qadar yoki O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilangan tartibga muvofiq bojxona hududida to'lanadi".

**4-modda.** O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 30-dekabrda qabul qilingan O'RQ–599-sonli Qonuni bilan yangi tahrirda tasdiqlangan **O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksiga** (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining Axborotnomasi, 2019-yil, 12-songa 1-ilova; 2020-yil, № 3, 198-modda, № 10, 593-modda, № 11, 652-modda, № 12, 690, 691-moddalar; 2021-yil, № 1, 6-modda, № 4, 294-modda, 4-songa ilova, № 8, 800-modda, № 9, 901-modda, № 10, 968, 969, 972, 973-moddalar, № 12, 1199-modda; 2022-yil, № 2, 79-modda, № 3, 215, 216-moddalar, № 5, 461, 464, 467-moddalar, № 6, 570-modda, № 7, 664, 666-moddalar, № 12, 1190-modda; 2023-yil, № 6, 444, 446-moddalar, № 7, 540-modda) quyidagi o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilsin:

1) **17-moddaning uchinchi qismi** quyidagi tahrirda bayon etilsin:

"Chet davlatlar avtotransport vositalarining O'zbekiston Respublikasi hududiga kirganligi va uning hududi orqali tranziti uchun yig'imni, yuk ko'tarish quvvati 10 tonnadan yuqori bo'lgan yuk avtotransporti vositalari va tirkamalarining avtomobil yo'llari bo'ylab harakatlanishi huquqi uchun yig'imni hamda alkogol mahsulotlarini realizatsiya qilish huquqi uchun yig'imlarni hisoblab chiqarish va to'lash tartibi ushbu Kodeks bilan tartibga solinadi";

2) **22-modda birinchi qismining yettinchi xatboshisidagi** "besh" degan so'z "uch" degan so'z bilan almashtirilsin;

3) **84-moddaning**:

**birinchi qismidagi** "besh" degan so'z "uch" degan so'z bilan almashtirilsin;

**ikkinchi qismidagi** "besh" degan so'z "uch" degan so'z bilan almashtirilsin;

4) **88-moddaning ikkinchi qismidagi** "besh yilni" degan so'zlar "uch yilni" degan so'zlar bilan almashtirilsin;

5) **100-moddaning to'rtinchi qismi** quyidagi tahrirda bayon etilsin:

"Yuridik shaxslar va yakka tartibdagi tadbirkorlar soliqni hisobga olish joyidagi soliq organiga yozma, shu jumladan soliq to'lovchining shaxsiy kabineti orqali xabarnoma yuborib, soliq auditi natijalari bo'yicha qo'shimcha hisoblangan soliqlar summalarini va moliyaviy sanksiyalarning tekshiruv materiallarini, shuningdek kameral soliq tekshiruvi natijalari bo'yicha qo'shimcha hisoblangan soliqlar summalarini ko'rib chiqish natijalari yuzasidan soliq organi tomonidan qabul qilingan qaror kuchga kirgan kundan e'tiboran olti oy ichida teng ulushlarda to'lashga haqli";

6) **104-moddaning beshinchi qismidagi** "besh" degan so'z "uch" degan so'z bilan almashtirilsin;

7) **105-moddaning birinchi qismidagi** "besh" degan so'z "uch" degan so'z bilan almashtirilsin;

8) **138-modda**:

quyidagi mazmundagi **ikkinchi qism** bilan to'ldirilsin:

«Kameral soliq tekshiruvida quyidagi soliq nazorati tadbirlarini o'tkazish taqiqlanadi, bundan qo'shilgan qiymat solig'i summasining o'rnini qoplash (qaytarish) maqsadida o'tkaziladigan kameral soliq tekshiruvi mustasno:

1) soliq to'lovchining hududiga kirish;

2) soliq to'lovchining hududini va binolarini ko'zdan kechirish;

3) soliq to'lovchidan hujjatlarni talab qilib olish va uni chaqirtirish;

4) soliq to'lovchining hujjatlari va buyumlarini olib qo'yish»;

**Ikkinchi – yigirma to'rtinchi qismlari** tegishincha **uchinchi – yigirma beshinchi qismlar** deb hisoblansin;

**o'n birinchi** va **o'n ikkinchi qismlari** chiqarib tashlansin;

**o'n uchinchi – yigirma beshinchi qismlari** tegishincha **o'n birinchi – yigirma uchinchi qismlar** deb hisoblansin;

9) **194-moddaning yettinchi qismidagi** "besh" degan so'z "uch" degan so'z bilan almashtirilsin;

10) **195-moddaning**:

**ikkinchi qismidagi** "to'rt" degan so'z "uch" degan so'z bilan almashtirilsin;

**to'rtinchi qismidagi** "to'rt" degan so'z "uch" degan so'z bilan almashtirilsin;

11) **217-moddaning birinchi qismidagi** "besh yil" degan so'zlar "uch yil" degan so'zlar bilan almashtirilsin;

12) **237-modda birinchi qismining 3-bandi** quyidagi tahrirda bayon etilsin:

"3) O'zbekiston Respublikasi hududida tovarlarni (xizmatlarni) realizatsiya qiluvchi chet el yuridik shaxslari, shuningdek chet davlatning qonunchiligiga muvofiq tadbirkor sifatida ro'yxatdan o'tgan va tadbirkorlik faoliyatini amalga oshiruvchi jismoniy shaxslar, agar bunday tovarlarni (xizmatlarni) realizatsiya qilish joyi deb O'zbekiston Respublikasi e'tirof etilsa";

13) **243-modda birinchi qismining 11, 12** va **13-bandlari** chiqarib tashlansin;

14) **246-moddaning 11-bandi** chiqarib tashlansin;

15) **255-modda uchinchi qismining o'zbekcha matnidagi** "chet el yuridik shaxslari" degan so'zlar "chet ellik shaxslar" degan so'zlar bilan almashtirilsin;

16) **264-moddaning**:

**uchinchi qismi** chiqarib tashlansin;

**to'rtinchi qismi uchinchi qism** deb hisoblansin;

17) **266-moddaning o'ninchi qismidagi** "chet el yuridik shaxsi" degan so'zlar "chet ellik shaxs" degan so'zlar bilan almashtirilsin;

18) **$289^1$-moddaning birinchi qismi** quyidagi tahrirda bayon etilsin:

«Tamaki mahsulotlariga nisbatan soliq stavkalari quyidagi miqdorlarda belgilanadi:

| T/r | Tamaki mahsulotlari turlari | Soliq stavkalari | |
|---|---|---|---|
| | | import qilinganda | ishlab chiqariladigan |
| 1. | Filtrli, filtrsiz sigaretalar, papiroslar, sigarillalar (sigaritlar), bidi, kretek | 325 000 so'm/ 1 000 dona + 10 foiz | 250 700 so'm/ 1 000 dona + 10 foiz |
| 2. | Sigara | 6 400 so'm/1 dona | |
| 3. | Chilim uchun tamaki | 382 000 so'm/kg* | |
| 4. | Chekiladigan, o'rama tamaki | 382 000 so'm/kg | |
| 5. | Chaynaladigan, hidlanadigan va shimiladigan tamaki | 382 000 so'm/kg | |
| 6. | Qizdiriladigan tamaki tayoqchasi, qizdiriladigan tamakili kapsula va tarkibida tamaki bo'lgan o'xshash tamoyil bilan foydalaniladigan boshqa mahsulotlar | 382 000 so'm/kg | |
| 7. | Nikotinli tamakisiz snyus | 154 000 so'm/kg | |
| 8. | Tarkibida nikotin mavjud bo'lgan suyuqlik (kartrijlarda, rezervuarlarda va elektron sigaretlarda foydalanish uchun boshqa konteynerlarda)** | 670 so'm/ml | |

*) Belgilangan soliq stavkasi bo'yicha soliq chilim uchun tamakisiz aralashmani olib kirishda ham to'lanadi.

**) Tarkibida nikotin mavjud bo'lgan suyuqlikni (nikotinni) uni iste'mol qilish (elektron va boshqalar) tizimlarida olib kirishda soliq tarkibida nikotin mavjud bo'lgan suyuqlik hajmidan kelib chiqqan holda to'lanadi»;

19) **$289^2$-moddaning matni** quyidagi tahrirda bayon etilsin:

«Alkogol mahsulotlariga nisbatan soliq stavkalari quyidagi miqdorlarda belgilanadi:

| T/r | Alkogol mahsulotlari turlari | Soliq stavkalari (1 litr uchun) | | |
|---|---|---|---|---|
| | | import qilinganda | ishlab chiqariladigan | |
| | | | 2024-yil 1-yanvardan | 2024-yil 1-iyuldan |
| 1. | Oziq-ovqat xom ashyosidan rektifikatsiyalangan etil spirti, rektifikatsiyalangan va efiroaldegidli fraksiyadan texnik etil spirti va etil spirtining boshlang'ich fraksiyasi | 70% | 14 900 so'm | |
| 2. | Aroq, konyak va boshqa alkogol mahsulotlari (aksiz to'lanadigan tovar tarkibidagi suvsiz etil spirtining 1 litri uchun, bundan 3 va 4-bandlar mustasno) | 101 500 so'm | 38 000 so'm | 40 000 so'm |
| 3. | Vino: | | | |
| | tabiiy ravishda achitilgan tabiiy vinolar (etil spirti qo'shilmagan holda) | 28 500 so'm | 1 so'm | |
| | boshqa vinolar, shu jumladan vermut | 40 600 so'm | 2 200 so'm | 2 310 so'm |
| 4. | Pivo | 50%, biroq 12 200 so'mdan kam bo'lmagan | 1 550 so'm | 1 628 so'm |

»;

20) **$289^3$-moddaning birinchi qismi** quyidagi tahrirda bayon etilsin:

«Neft mahsulotlari va boshqa aksiz to'lanadigan tovarlar va xizmatlarga nisbatan soliq stavkalari quyidagi miqdorlarda belgilanadi:

| T/r | Tovarlar (xizmatlar) nomi | Soliq stavkalari | |
|---|---|---|---|
| | | 2024-yil 1-yanvardan | 2024-yil 1-apreldan |
| 1. | Neft mahsulotlari: | | |
| | Ai-80 va undan yuqori benzin | 303 000 so'm/tonna | 340 000 so'm/tonna |
| | Ai-91 va undan yuqori benzin | 303 000 so'm/tonna | |
| | aviakerosin (sintetikdan tashqari) | 242 000 so'm/tonna | 271 000 so'm/tonna |
| | dizel yoqilg'isi (sintetikdan tashqari) | 291 000 so'm/tonna | 326 000 so'm/tonna |
| | EKO dizel yoqilg'isi (sintetikdan tashqari) | 262 000 so'm/tonna | 293 000 so'm/tonna |
| | dizel yoki karbyurator (injektor) dvigatellari uchun motor moyi | 412 000 so'm/tonna | 461 000 so'm/tonna |
| 2. | Polietilen granulalar | 10% | |
| 3. | Tabiiy gaz, bundan O'zbekiston Respublikasiga olib kirilgan gaz mustasno | 20% | |
| 4. | Yakuniy iste'molchiga realizatsiya qilinadigan: | | |
| | Ai-80 va undan yuqori benzin | 1 litr uchun 425 so'm/1 tonna uchun 565 000 so'm | 1 litr uchun 476 so'm/ 1 tonna uchun 633 000 so'm |
| | Ai-91 va undan yuqori benzin | 1 litr uchun 425 so'm/ 1 tonna uchun 565 000 so'm | |
| | dizel yoqilg'isi | 1 litr uchun 425 so'm/ 1 tonna uchun 516 000 so'm | 1 litr uchun 476 so'm/ 1 tonna uchun 578 000 so'm |
| | suyultirilgan gaz | 1 litr uchun 425 so'm/ 1 tonna uchun 807 500 so'm | 1 litr uchun 476 so'm/ 1 tonna uchun 904 000 so'm |
| | siqilgan gaz | 1 kub metr uchun 605 so'm | 1 kub metr uchun 678 so'm |
| 5. | Mobil aloqa xizmatlari | 10% | |
| 6. | Xushbo'ylashtiruvchi yoki rang beruvchi qo'shimchalarsiz oq shakar | 20% | |
| 7. | Tarkibida shakar yoki boshqa shirinlashtiruvchi yoki xushbo'ylashtiruvchi moddalar bo'lgan, gazlangan hamda iste'mol qadog'iga qadoqlangan ichimliklar (bundan energetik va tetiklashtiruvchi ichimliklar mustasno) | — | 1 litr uchun 500 so'm |
| | Energetik va tetiklashtiruvchi ichimliklar | — | 1 litr uchun 2 000 so'm |

»;

21) **340-moddaning ikkinchi qismidagi** "besh milliard" degan so'zlar "o'n milliard" degan so'zlar bilan almashtirilsin;

22) **359-moddaning oltinchi qismidagi** "besh" degan so'z "uch" degan so'z bilan almashtirilsin;

23) **369-modda**:

quyidagi mazmundagi **ikkinchi qism** bilan to'ldirilsin:

"Ushbu modda birinchi qismining 9-bandida nazarda tutilgan shaxslarning mehnat faoliyati natijasida yoki tovarlarni (xizmatlarni) realizatsiya qilishdan olingan daromadlariga ushbu daromadlar soliq davrida yuz million so'mdan oshgan kundan e'tiboran ushbu Kodeks maqsadida yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun belgilangan tartibda soliq solinadi. Bunda o'zini o'zi band qilgan shaxslar ijtimoiy soliqni ushbu Kodeksda belgilangan tartibda to'laydi";

**ikkinchi qismi uchinchi qism** deb hisoblansin;

24) **373-moddaning 12-bandidagi** "ikkinchi qismining" degan so'zlar "uchinchi qismining" degan so'zlar bilan almashtirilsin;

25) **376-modda birinchi qismining birinchi xatboshisidagi** "ikkinchi qismida" degan so'zlar "uchinchi qismida" degan so'zlar bilan almashtirilsin;

26) **378-modda**:

**16-bandining ikkinchi xatboshisidagi** "o'zining, shuningdek yigirma olti yoshga to'lmagan farzandlarining yoki erining (xotinining)" degan so'zlar "o'zining, farzandlarining, shuningdek yigirma olti yoshga to'lmagan erining (xotinining)" degan so'zlar bilan almashtirilsin;

quyidagi mazmundagi **22** va **23-bandlar** bilan to'ldirilsin:

«22) aksiyalar ommaviy joylashtirilganda korxonalar xodimlarining o'z oylik ish haqidan va unga tenglashtirilgan to'lovlardan oshmaydigan, ushbu korxonalar xodimlarining aksiyalarga egalik qilish rejasi doirasida aksiyalarni sotib olishga yo'naltirilgan mablag'lari;

23) soliq to'lovchilar ish haqining va boshqa daromadlarining mahalliy fond bozorida emissiya qilingan qimmatli qog'ozlarni sotib olish uchun shaxsiy investitsiya hisobvarag'iga yo'naltiriladigan qismi, quyidagi shartlarda:

soliq davri davomida jami mehnatga haq to'lash eng kam miqdorining yuz baravarigacha bo'lgan miqdorda;

to'lovlar o'sib bormaydigan tartibda to'langanda va bir yo'la to'lanadigan to'lovlarni shartnomaning amal qilish muddati boshlangan kundan e'tiboran o'n ikki oy ichida qaytarib olmaslik sharti bilan. Ushbu bandning shartlari buzilgan yoxud shartnoma muddatidan oldin bekor qilingan va pul mablag'lari to'liq yoki qisman qaytarilgan taqdirda, qaytariladigan mablag'larga to'lov manbaida soliq solinishi lozim»;

27) **383-moddaning birinchi qismi** quyidagi tahrirda bayon etilsin:

«Soliqni qat'iy belgilangan miqdorlarda to'lovchi soliq to'lovchilar uchun soliq stavkasi quyidagi miqdorlarda belgilanadi:

| T/r | Faoliyat turi | Bir oylik soliq stavkalari (so'mda) | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| | | Toshkent shahri | Nukus shahri va viloyat markazlari bo'lgan shaharlar | boshqa shaharlar | boshqa aholi punktlari |
| 1. | Chakana savdo: | | | | |
| | oziq-ovqat tovarlari va nooziq-ovqat tovarlari bilan | 907 500 | 726 000 | 363 000 | 242 000 |
| | dehqon bozorlarida qishloq xo'jaligi mahsulotlari bilan | 302 500 | 181 500 | 121 000 | 60 000 |
| | gazetalar, jurnallar va kitob mahsulotlari bilan | 302 500 | 181 500 | 121 000 | 60 000 |
| 2. | Maishiy xizmatlar | 302 500 | 181 500 | 121 000 | 60 000 |
| 3. | Boshqa faoliyat turlari | 302 500 | 181 500 | 121 000 | 60 000 |
| 4. | Avtomobil transportida yuk tashish xizmatlari: | | | | |
| | 3 tonnagacha yuk ko'tarish quvvatiga ega yuk avtomobillari uchun | 181 500 | | | |
| | 3 tonnadan ortiq yuk ko'tarish quvvatiga ega yuk avtomobillari uchun | 275 000 | | | |

»;

28) **403-modda to'rtinchi qismining ikkinchi xatboshisidagi** "ikkinchi qismining" degan so'zlar "uchinchi qismining" degan so'zlar bilan almashtirilsin;

29) **411-modda uchinchi qismining 2-bandi** quyidagi tahrirda bayon etilsin:

"2) uy-joy-kommunal xo'jaligining va belgilangan maqsadi bo'yicha foydalaniladigan boshqa umumfuqaroviy ahamiyatga molik shahar xo'jaligi obyektlari. Uy-joy-kommunal hamda boshqa umumfuqaroviy ahamiyatga molik shahar xo'jaligi obyektlari jumlasiga shaharlar va shaharchalarni sanitariya jihatdan tozalash, obodonlashtirish hamda ko'kalamzorlashtirish obyektlari, tashqi yoritish, kommunal-maishiy ehtiyojlar uchun va aholiga vodoprovod (suv olish va tozalash inshootlari bilan), kanalizatsiya (tozalash inshootlari bilan), gaz, qozonxonalar hamda issiqlik taqsimlanadigan tarmoqlar (ularning inshootlari bilan), shuningdek uy-joy-kommunal xo'jaligi obyektlariga texnik jihatdan xizmat ko'rsatish va ularni ta'mirlash, boshqaruvchi tashkilotlar yoki ko'p kvartirali uylarni boshqaruvchilar tomonidan umumiy mol-mulkni boshqarish, unga texnik xizmat ko'rsatish va uni ta'mirlash, ko'p kvartirali uylarga tutash yer uchastkalarini obodonlashtirish bo'yicha xizmatlar ko'rsatish uchun mo'ljallangan binolar, shuningdek ko'p kvartirali uylarda joylashgan ko'p kvartirali uy mulkdorlarining umumiy mol-mulki kiradi";

30) **412-modda birinchi qismi 1-bandining to'rtinchi, beshinchi** va **oltinchi xatboshilari** quyidagi tahrirda bayon etilsin:

«Toshkent shahrida – uch million so'm;

Nukus shahrida va viloyat markazlarida – ikki million so'm;

boshqa shaharlarda va qishloq joylarda – bir million ikki yuz ming so'm»;

31) **420-modda**:

**ikkinchi qismi** quyidagi tahrirda bayon etilsin:

«Soliqni hisoblab chiqarish maqsadida soliq bazasi:

ushbu Kodeks 419-moddasining 1, 3 va 4-bandlarida nazarda tutilgan obyektlar bo'yicha – qirq ikki million so'mdan kam bo'lishi mumkin emas;

ushbu Kodeks 419-moddasining 2-bandida nazarda tutilgan obyektlarning 1 kv. metri bo'yicha – ushbu Kodeks 412-moddasi birinchi qismi 1-bandining to'rtinchi, beshinchi va oltinchi xatboshilarida belgilangan eng kam qiymatdan past bo'lishi mumkin emas. Bunda ushbu Kodeks 412-moddasi birinchi qismi 1-bandining yettinchi, sakkizinchi va to'qqizinchi xatboshilari qoidalari ushbu Kodeks 419-moddasining 2-bandida nazarda tutilgan obyektlarga nisbatan ham tatbiq etiladi»;

quyidagi mazmundagi **uchinchi qism** bilan to'ldirilsin:

"Ushbu modda ikkinchi qismining uchinchi xatboshisi qoidalari qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirish va saqlash, shuningdek ipak qurti yetishtirish uchun berilgan ko'chmas mulk obyektlariga nisbatan tatbiq etilmaydi";

**uchinchi** va **to'rtinchi qismlari** tegishincha **to'rtinchi** va **beshinchi qismlar** deb hisoblansin;

**to'rtinchi qismidagi** "ushbu moddaning ikkinchi qismida" degan so'zlar "ushbu modda ikkinchi qismining ikkinchi xatboshisida" degan so'zlar bilan almashtirilsin;

32) **422-moddaning birinchi qismi** quyidagi tahrirda bayon etilsin:

«Soliq stavkalari quyidagi miqdorlarda belgilanadi:

| T/r | Soliq solish obyektlari | Soliq stavkalari, foizlarda |
|---|---|---|
| 1. | Uy-joylar va kvartiralar, dala hovli imoratlari (umumiy maydoni 200 kv.m gacha bo'lganlarini qo'shib hisoblaganda), ko'p kvartirali uylarga uzviy bog'liq bo'lgan avtomashina turar joylari, shuningdek boshqa imoratlar, binolar va inshootlar | 0,31 |
| 2. | Shaharlarda joylashgan uy-joylar va kvartiralar, umumiy maydoni | |
| | 200 kv.m dan ortiq va 500 kv.m gacha bo'lgan | 0,41 |
| | 500 kv.m dan ortiq bo'lgan | 0,55 |
| 3. | Boshqa aholi punktlarida joylashgan, umumiy maydoni 200 kv.m dan ortiq bo'lgan uy-joylar va kvartiralar, dala hovli imoratlari | 0,41 |
| 4. | Tadbirkorlik faoliyati uchun yoxud yuridik shaxsga yoki yakka tartibdagi tadbirkorga ijaraga berishda foydalaniladigan soliq solish obyektlari, shuningdek tadbirkorlik faoliyati va (yoki) daromadlar olish uchun mo'ljallangan, yashash uchun mo'ljallanmagan ko'chmas mulk obyektlari | 1,5 |

»;

33) **423-modda**:

**birinchi** va **ikkinchi qismlari** quyidagi tahrirda bayon etilsin:

«Soliqni hisoblab chiqarish soliq solish obyekti joylashgan yerdagi soliq organlari tomonidan:

ushbu Kodeks 419-moddasining 1, 3 va 4-bandlarida nazarda tutilgan obyektlar bo'yicha – ko'chmas mulkka bo'lgan huquqlarni davlat ro'yxatidan o'tkazishni amalga oshiruvchi organning ma'lumotlari asosida;

ushbu Kodeks 419-moddasining 2-bandida nazarda tutilgan obyektlar bo'yicha – ko'chmas mulkka bo'lgan huquqlarni davlat ro'yxatidan o'tkazishni amalga oshiruvchi organning ma'lumotlari hamda ushbu Kodeks 420-moddasi ikkinchi qismining uchinchi xatboshisi va uchinchi qismi asosida amalga oshiriladi.

Soliq summasi 1-yanvar holatiga ko'ra ushbu Kodeksning 420-moddasiga muvofiq aniqlangan soliq bazasidan va belgilangan soliq stavkasidan kelib chiqqan holda hisoblab chiqariladi»;

quyidagi mazmundagi **uchinchi qism** bilan to'ldirilsin:

"Soliq to'lovchi tadbirkorlik faoliyati va (yoki) daromad olish uchun mo'ljallangan, yashash uchun mo'ljallanmagan ko'chmas mulk obyektlari joylashgan yerdagi soliq organlariga baholovchi tashkilotlar tomonidan o'tkazilgan, shu jumladan o'tgan ikki yil ichida o'tkazilgan mustaqil baholash natijalarini (mavjud bo'lgan taqdirda), shuningdek qonunchilikda belgilangan eng kam qiymat tatbiq etilmaydigan ko'chmas mulk obyektlari ro'yxatini taqdim etishga haqli";

**uchinchi – o'ninchi qismlari** tegishincha **to'rtinchi – o'n birinchi qismlar** deb hisoblansin;

**o'ninchi qismi** "imzo qo'ydirilgan holda yoki" degan so'zlardan keyin "mavjud bo'lgan taqdirda, soliq to'lovchining shaxsiy kabinetiga elektron tarzda, soliq to'lovchining nomiga rasmiylashtirilgan uyali telefon raqamiga va soliq organlarining maxsus mobil ilovasiga SMS-xabarnoma tarzida, shuningdek" degan so'zlar bilan to'ldirilsin;

34) **429-modda**:

**birinchi qismi** quyidagi tahrirda bayon etilsin:

«Qishloq xo'jaligi uchun mo'ljallanmagan yerlar bo'yicha bazaviy soliq stavkalari respublika hududlari kesimida 1 gektar uchun mutlaq o'lchamda quyidagi miqdorlarda belgilanadi:

| Respublika hududlari | 1 gektar uchun bazaviy soliq stavkasi (mln so'mda) |
|---|---|
| Toshkent shahri: | |
| 1 zona | 271 |
| 2 zona | 216 |
| 3 zona | 167 |
| 4 zona | 111 |
| 5 zona | 56 |
| Qoraqalpog'iston Respublikasi | 35 |
| Andijon viloyati | 44 |
| Buxoro viloyati | 36 |
| Jizzax viloyati | 36 |
| Qashqadaryo viloyati | 36 |
| Navoiy viloyati | 36 |
| Namangan viloyati | 44 |
| Samarqand viloyati | 44 |
| Surxondaryo viloyati | 32 |
| Sirdaryo viloyati | 27 |
| Toshkent viloyati | 37 |
| Farg'ona viloyati | 37 |
| Xorazm viloyati | 36 |

»;

(Davomi 3-betda).

O‘zbekiston Respublikasining
QONUNI

# Soliq va budjet siyosatining 2024-yilga mo‘ljallangan asosiy yo‘nalishlari qabul qilinganligi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida

(Davomi. Boshlanishi 1, 2-betlarda).

**uchinchi qismining birinchi jumlasi** quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“Tumanlar va shaharlar xalq deputatlari Kengashlari tomonidan joriy soliq davri uchun soliq stavkalari qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yer uchastkalari joylashgan joydagi soliq organlariga har yili 10-yanvarga qadar taqdim etiladi”;

**o‘n ikkinchi qismi** “shuningdek qonunchilikda belgilangan soliq imtiyozlari va kamaytiruvchi koeffitsiyentlar mazkur yer uchastkalarida qurilish tugallanguniga qadar ularga nisbatan tatbiq etilmaydi” degan so‘zlar bilan to‘ldirilsin;

35) **434-moddaning ikkinchi qismi** quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“Ko‘p kvartirali uylar egallagan va ko‘p kvartirali uylar mulkdorlariga umumiy foydalanish (notijorat maqsadlarda) uchun doimiy foydalanish huquqi asosida berilgan ko‘p kvartirali uylarga tutash yer uchastkalari soliq solish obyekti bo‘lmaydi, bundan ushbu modda birinchi qismining 7-bandida ko‘rsatilgan yer uchastkalari va ko‘p kvartirali uylarda joylashgan yashash uchun mo‘ljallanmagan ko‘chmas mulk obyektlari mustasno”;

36) **437-moddaning**:

**birinchi qismi** quyidagi tahrirda bayon etilsin:

«Respublika hududlari kesimida bazaviy soliq stavkalari 1 kv. m uchun mutlaq o‘lchamda quyidagi miqdorlarda belgilanadi (bundan dehqon xo‘jaligini yuritish uchun, shuningdek jismoniy shaxslarga berilgan qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yer uchastkalari mustasno):

| Respublika hududlari | 1 kv. m uchun bazaviy soliq stavkasi (so‘mda) |
|---|---|
| Toshkent shahri: | |
| 1 zona | 1 577 |
| 2 zona | 1 337 |
| 3 zona | 1 096 |
| 4 zona | 862 |
| 5 zona | 616 |
| Qoraqalpog‘iston Respublikasi | 320 |
| Andijon viloyati | 394 |
| Buxoro viloyati | 320 |
| Jizzax viloyati | 320 |
| Qashqadaryo viloyati | 320 |
| Navoiy viloyati | 320 |
| Namangan viloyati | 394 |
| Samarqand viloyati | 394 |
| Surxondaryo viloyati | 300 |
| Sirdaryo viloyati | 253 |
| Toshkent viloyati | 333 |
| Farg‘ona viloyati | 333 |
| Xorazm viloyati | 320 |

»;

**uchinchi qismi** quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“Tumanlar va shaharlar xalq deputatlari Kengashlari tomonidan joriy soliq davri uchun soliq stavkalari qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yer uchastkalari joylashgan joydagi soliq organlariga har yili 10-yanvarga qadar taqdim etiladi”;

37) **439-moddaning ikkinchi qismi** “imzo qo‘ydirib yoki” degan so‘zlardan keyin “mavjud bo‘lgan taqdirda, soliq to‘lovchining shaxsiy kabinetiga elektron tarzda, soliq to‘lovchining nomiga rasmiylashtirilgan uyali telefon raqamiga va soliq organlarining maxsus mobil ilovasiga SMS-xabarnoma tarzida, shuningdek” degan so‘zlar bilan to‘ldirilsin;

38) **445-moddaning birinchi qismi** quyidagi tahrirda bayon etilsin:

«Belgilangan limit doirasida yer usti va yer osti manbalaridan olinadigan suv resurslari uchun soliq stavkalari mutlaq miqdorda bir kub metr uchun quyidagi miqdorlarda belgilanadi:

| T/r | Soliq to‘lovchilar va soliq solish obyektlari | 1 kub. metr uchun soliq stavkasi (so‘mda) | |
|---|---|---|---|
| | | yer usti suv resurslari manbalari | yer osti suv resurslari manbalari |
| 1. | Iqtisodiyotning barcha tarmoqlaridagi korxonalar (bundan 2 va 3-bandlarda ko‘rsatilganlari mustasno), shuningdek yakka tartibdagi tadbirkorlar va tadbirkorlik faoliyati va (yoki) daromad olish uchun mo‘ljallangan, yashash uchun mo‘ljallanmagan ko‘chmas mulk obyektlariga ega bo‘lgan jismoniy shaxslar | 345 | 415 |
| 2. | Sanoat korxonalari | 638 | 760 |
| 3. | Elektr stansiyalari va kommunal xizmat ko‘rsatish korxonalari | 101 | 123 |
| 4. | Qishloq xo‘jaligi yerlarini sug‘orish va baliqlarni yetishtirish (o‘stirish) uchun foydalaniladigan suv hajmi, shu jumladan dehqon xo‘jaliklari va qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlarga ega bo‘lgan jismoniy shaxslar | 100 | 100 |
| 5. | Avtotransport vositalarini yuvish uchun ishlatilgan suv hajmi | 2 700 | 2 700 |
| 6. | Alkogolsiz ichimliklarni hamda pivo va vinodan tashqari alkogol mahsulotlarini ishlab chiqarish uchun foydalaniladigan suv hajmi | 34 160 | 34 160 |

»;

39) **447-moddaning to‘rtinchi qismi** quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“Soliq organlari soliq to‘lash to‘g‘risidagi to‘lov xabarnomasini dehqon xo‘jaliklariga, shuningdek qishloq xo‘jaligi yerlariga hamda tadbirkorlik faoliyati va (yoki) daromad olish uchun mo‘ljallangan, yashash uchun mo‘ljallanmagan ko‘chmas mulk obyektlariga ega bo‘lgan jismoniy shaxslarga imzo qo‘ydirib yoki, mavjud bo‘lgan taqdirda, soliq to‘lovchining shaxsiy kabinetiga elektron tarzda, soliq to‘lovchining nomiga rasmiylashtirilgan uyali telefon raqamiga va soliq organlarining maxsus mobil ilovasiga SMS-xabarnoma tarzida, shuningdek to‘lov xabarnomasi olinganligi faktini va olingan sanani tasdiqlovchi boshqa usulda soliq davridan keyingi yilning 1-martidan kechiktirmay topshiradi”;

40) **452-modda birinchi qismi**:

**7-bandi** quyidagi tahrirda bayon etilsin:

«

| | | | |
|---|---|---|---|
| 7. | Kon-kimyo xom ashyosi | Mineral pigmentlar | 5,5 |
| | | Yod | 4,8 |
| | | Mineral tuzlar (tosh tuz (ovqatga ishlatiladigani), kaliy tuzi, sulfat tuzi), karbonat xom ashyosi (ohaktoshlar, dolomitlar), mineral o‘g‘itlar (glaukonit, fosforitlar va boshqalar) hamda boshqa kon-kimyo xom ashyosi | 3,5, biroq 5 600 so‘m/kub.m dan kam bo‘lmagan |

»;

**9-bandi** quyidagi tahrirda bayon etilsin:

«

| | | | |
|---|---|---|---|
| 9. | Noruda qurilish materiallari | Sement ishlab chiqarish uchun mo‘ljallangan ohaktoshdan tashqari sement xom ashyosi | 5 |
| | | Sement ishlab chiqarishga mo‘ljallangan ohaktosh | 6000 so‘m/tonna* |
| | | Tabiiy bezaktoshdan bloklar, arralanadigan xarsangtosh, xarsangtosh, marmar, ohaktosh-chig‘anoq, ohaktosh (sement va ohak ishlab chiqarish uchun mo‘ljallangan ohaktoshdan tashqari), dolomitlar, qurilishda ishlatiladigan mayda toshlar, bazalt, granitlar, granodioritlar, granosiyenitlar, siyenitlar, porfiritlar, diabaz-porfiritlar, gabbro, slanes jinslari, karbonat xom ashyosi, travertin | 5, biroq 5 600 so‘m/kub.m dan kam bo‘lmagan |
| | | Gips toshi, gips va angidrid, ganch | 5, biroq 14 500 so‘m/tonnadan kam bo‘lmagan |
| | | o‘isht-cherepitsa xom ashyosi, lyosslar va lyossimon jinslar, qurilish qumi, qumtoshlar, qum-shag‘al aralashmasi | 5, biroq 4 200 so‘m/kub.m dan kam bo‘lmagan |
| | | Ohak ishlab chiqarishga mo‘ljallangan ohaktosh, farfor xom ashyosi, keramzit xom ashyosi, mergel, argillitlar, vulqon jinslari, pelitli tuffitlar, mineral tola ishlab chiqarish uchun bazalt, diabaz, gliyej, andezibazalt, temir tarkibli qo‘shimchalar, magnetit-gematitli jinslar va boshqa noruda qurilish materiallari hamda keng tarqalgan foydali qazilmalar | 5 |

»;

**izohining ikkinchi jumlasi** chiqarib tashlansin;

**uchinchi qismi** quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“Ushbu moddaning birinchi qismida belgilangan soliq stavkalari (bundan oltin, kumush, palladiy, mis va uran uchun belgilangan soliq stavkalari mustasno) 2022-yil 1-yanvardan keyin qazib olish boshlangan yer qa’ri uchastkasida uglevodorodlarni, qimmatbaho, rangli va radioaktiv metallarni, nodir elementlarni va nodir yer elementlarini qazib olishni (ajratib olishni) amalga oshiruvchi, davlat ulushi ustun mavqega ega bo‘lgan korxonalarga nisbatan ham qo‘llaniladi”;

41) **455-modda** quyidagi mazmundagi **1[1]-band** bilan to‘ldirilsin:

“11) yuk ko‘tarish quvvati 10 tonnadan yuqori bo‘lgan yuk avtotransporti vositalari va tirkamalarining avtomobil yo‘llari bo‘ylab harakatlanishi huquqi uchun yig‘im”;

42) **456-modda**:

quyidagi mazmundagi ikkinchi qism bilan to‘ldirilsin:

“Yuk ko‘tarish quvvati 10 tonnadan yuqori bo‘lgan yuk avtotransporti vositalari va tirkamalarining egalari ushbu vositalarning avtomobil yo‘llari bo‘ylab harakatlanishi huquqi uchun yig‘imning soliq to‘lovchilari deb e’tirof etiladi”;

**ikkinchi qismi uchinchi qism** deb hisoblansin;

43) **457-moddaning matni** quyidagi tahrirda bayon etilsin:

«Quyidagilar yig‘imlarning soliq solish obyektidir:

chet davlatlar avtotransport vositalarining O‘zbekiston Respublikasi hududiga kirishi va uning hududi orqali tranziti;

yuk ko‘tarish quvvati 10 tonnadan yuqori bo‘lgan yuk avtotransporti vositalari va tirkamalari.

Ushbu modda birinchi qismining uchinchi xatboshisida nazarda tutilgan soliq solish obyekti jumlasiga quyidagilar kirmaydi:

1) karyerlar hududida ishlaydigan og‘ir yuk ko‘taradigan avtosamosvallar;

2) avtokranlar;

3) O‘zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligi, Mudofaa vazirligi, Milliy gvardiyasi va huquqni muhofaza qiluvchi organlar tasarrufidagi avtotransport vositalari»;

44) **458-moddaning matni** quyidagi tahrirda bayon etilsin:

«Quyidagilar yig‘imlarning soliq bazasi hisoblanadi:

O‘zbekiston Respublikasi hududiga kirayotganida yoki uning hududi orqali tranzit o‘tayotganida – chet davlatlarning avtotransport vositalari;

yuk ko‘tarish quvvati 10 tonnadan yuqori bo‘lgan yuk avtotransporti vositalari va tirkamalari»;

45) **460-modda**:

**birinchi qismi** quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“Chet davlatlar avtotransport vositalarining O‘zbekiston Respublikasi hududiga kirganligi va uning hududi orqali tranziti uchun yig‘im chet davlatning avtotransport vositasi O‘zbekiston Respublikasi hududiga kirayotganda yoki O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilangan tartibga muvofiq O‘zbekiston Respublikasining bojxona hududida undiriladi”;

quyidagi mazmundagi **ikkinchi qism** bilan to‘ldirilsin:

“Yuk ko‘tarish quvvati 10 tonnadan yuqori bo‘lgan yuk avtotransporti vositalari va tirkamalarining avtomobil yo‘llari bo‘ylab harakatlanishi huquqi uchun yig‘im qonunchilikda belgilangan tartibda Qoraqalpog‘iston Respublikasi Transport vazirligi va hududiy transport boshqarmalari tomonidan undiriladi. Bunda to‘langan yig‘im yuk avtotransporti vositalari va tirkamalariga avtomobil yo‘llari bo‘ylab bir yil davomida harakatlanish huquqini beradi”;

**ikkinchi – oltinchi qismlari** tegishincha **uchinchi – yettinchi qismlar** deb hisoblansin;

46) **467-modda uchinchi qismining**:

**1-bandidagi** “20” raqami “25” raqami bilan almashtirilsin;

**2-bandidagi** “30” raqami “34” raqami bilan almashtirilsin;

47) **483-modda**:

**yigirma yettinchi qismining birinchi xatboshisidagi** “2024-yil 31-dekabrga” degan so‘zlar “2028-yil 31-dekabrga” degan so‘zlar bilan almashtirilsin;

quyidagi mazmundagi **qirq ikkinchi – qirq beshinchi qismlar** bilan to‘ldirilsin:

“Kichik biznesni uzluksiz qo‘llab-quvvatlash kompleks dasturi”da ishtirok etadigan tijorat banklarining loyihalar uchun ajratilgan bank kreditlari bo‘yicha olingan foizlar tarzidagi daromadlari foyda solig‘ini hisoblab chiqarish maqsadlarida 2024-yil 1-yanvardan 2026-yil 1-yanvarga qadar bo‘lgan davrda chegiriladigan xarajatlar sifatida e’tirof etiladi.

“Izlanish va rivojlanish” markazlari 2024-yil 1-yanvardan 2027-yil 1-yanvarga qadar bo‘lgan davrda mazkur markazlarning obyektlari va ular egallagan yer uchastkalari bo‘yicha yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliqni hamda yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘ini ushbu soliqlar bo‘yicha hisoblangan summaning 1 foizi miqdorida, shuningdek ijtimoiy soliqni 1 foiz miqdoridagi soliq stavkasi bo‘yicha to‘laydi.

Qimmatbaho, rangli va (yoki) radioaktiv metallarni, nodir elementlarni hamda nodir yer elementlarini qazib oluvchi va (yoki) ularni texnogen mineral hosilalardan (bundan buyon matnda metallar deb yuritiladi) ajratib oluvchi, shuningdek uglevodorod xom ashyosini qazib oluvchi yuridik shaxslarga nisbatan ushbu Kodeksning XVIII[1] bo‘limida nazarda tutilgan qoidalar 2024-yil 1-yanvardan 2025-yil 31-dekabrga qadar bo‘lgan davrda tatbiq etilmaydi. Mazkur qoida qazib olish 2024-yil 1-yanvardan 2025-yil 31-dekabrga qadar bo‘lgan davrda boshlangan yer qa’ri uchastkasiga nisbatan qo‘llaniladi va metallarni yoki uglevodorod xom ashyosini qazib olish (ajratib olish) bo‘yicha faoliyatni amalga oshirishning butun davri uchun tatbiq etiladi.

Budjet tashkilotlari tomonidan xalqaro moliya institutlaridan va xorijiy hukumat moliya tashkilotlaridan jalb qilingan hamda jalb qilinadigan davlat tashqi qarzi hisobidan to‘liq yoki qisman amalga oshiriladigan loyihalar doirasida, shuningdek davlat korxonalari hamda ustav fondida (ustav kapitalida) davlat ulushi 50 foiz miqdorida va undan ortiq bo‘lgan yuridik shaxslar tomonidan infratuzilma loyihalari uchun xalqaro moliya institutlaridan va xorijiy hukumat moliya tashkilotlaridan jalb qilingan hamda jalb qilinadigan davlat tashqi qarzi (bundan O‘zbekiston Respublikasining tijorat banklari orqali qayta moliyalashtiriladigan yoki qayta kreditlanadigan xalqaro moliya institutlarining va xorijiy hukumat moliya tashkilotlarining mablag‘lari mustasno) hisobidan to‘liq yoki qisman amalga oshiriladigan loyihalar doirasida sotib olinadigan tovarlarni (xizmatlarni) realizatsiya qilish bo‘yicha aylanma, shuningdek ularni olib kirish 2028-yil 1-yanvarga qadar qo‘shilgan qiymat solig‘idan ozod qilinadi».

**5-modda.** O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi hamda boshqa manfaatdor tashkilotlar ushbu Qonunning ijrosini, ijrochilarga yetkazilishini hamda mohiyati va ahamiyati aholi o‘rtasida tushuntirilishini ta’minlasin.

**6-modda.** O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi:

hukumat qarorlarini ushbu Qonunga muvofiqlashtirsin;

respublika ijro etuvchi hokimiyat organlari ushbu Qonunga zid bo‘lgan o‘z normativ-huquqiy hujjatlarini qayta ko‘rib chiqishlari va bekor qilishlarini ta’minlasin.

**7-modda.** Ushbu Qonun 2024-yil 1-yanvardan e’tiboran kuchga kiradi.

Ushbu Qonunning 1 va 2-moddalari 2024-yil 1-iyuldan e’tiboran amalga kiritiladi.

Ushbu Qonun 4-moddasining 13, 14, 16, 41 – 44-bandlari hamda 45-bandi to‘rtinchi va beshinchi xatboshilari 2024-yil 1-apreldan e’tiboran amalga kiritiladi.

Ushbu Qonun 4-moddasining 27-bandi 2024-yil 1-fevraldan e’tiboran amalga kiritiladi.

Ushbu Qonun 4-moddasi 26-bandi ikkinchi xatboshisining qoidalari 2023-yil 1-avgustdan e’tiboran yuzaga kelgan munosabatlarga nisbatan ham tatbiq etiladi.

Ushbu Qonun 4-moddasi 47-bandi yettinchi xatboshisining qoidalari 2023-yil 16-noyabrdan e’tiboran yuzaga kelgan munosabatlarga nisbatan ham tatbiq etiladi.

**O‘zbekiston Respublikasining Prezidenti Sh. MIRZIYOYEV**

Toshkent shahri,
2023-yil 28-dekabr
№ O‘RQ—891

# DOLZARB QONUN LOYIHALARI KO‘RIB CHIQILDI



1 Qonun loyihasi bilan tovarlarni olib kirishda bojxona qiymatini aniqlashga doir normalar xalqaro standartlarga muvofiqlashtiriladi, tovarlarni eksport, reimport va reeksport bojxona rejimlariga joylashtirish tartib-taomillari soddalashtiriladi.

Qonun loyihasida tovarlarning bojxona qiymatini belgilashning asosiy usuli sifatida shartnoma bahosi qat’iy belgilanmoqda. Bir vaqtning o‘zida bir nechta bojxona tartibotlarini amalga oshirish uchun bojxona to‘lovlari to‘lanishini belgilovchi Bosh ta’minlov hujjatini qo‘llash amaliyoti kiritilmoqda.

Shuningdek, kontrafakt mahsulotlar kirib kelishining oldini olish maqsadida bojxona organlariga qo‘shimcha huquqlar berilmoqda. Tovarlar bo‘yicha ekspertiza yakunlanmagan bo‘lsa ham, ushbu tovarlarni importga shartli chiqarib yuborish amaliyoti joriy etilayotir.

Bundan tashqari, qonun loyihasi bilan tadbirkorga tovarlarni O‘zbekistonga olib kelgunga qadar ular bo‘yicha bojxona to‘lovlari va ishlab chiqarilgan mamlakatini aniqlash yuzasidan oldindan ma’lumot olishning huquqiy asosi mustahkamlanmoqda. Mazkur yangi tartibning joriy etilishi tadbirkorlarga o‘z bizneslarini oldindan rejalashtirishga yanada keng imkoniyat yaratib beradi.

Qizg‘in bahs-munozaradan so‘ng qonun loyihasi deputatlar tomonidan qabul qilindi.

## Qizg‘in munozaralar va asosli takliflar

Deputatlar “O‘zbekiston Respublikasi milliy qonunchiligining Jahon savdo tashkiloti bitimlariga uyg‘unlashtirilishi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi qonun loyihasini ikkinchi o‘qishda ko‘rib chiqdilar.

Keyingi yillarda mamlakatimizning iqtisodiy va ijtimoiy sohadagi xalqaro tashkilotlarda tutgan o‘rnini yanada yaxshilash hamda xalqaro tashkilotlarga qo‘shilish bo‘yicha tizimli ishlar amalga oshirilmoqda.

Xususan, yurtimizning xalqaro savdo qoidalarini boshqarib turuvchi yagona va nufuzli xalqaro tashkilot — Jahon savdo tashkilotiga a’zo bo‘lish jarayonini tezlashtirish hamda uni sifatli bajarish eng dolzarb masalalardan biri bo‘lib kelmoqda.

Muayyan bir davlat Jahon savdo tashkilotiga a’zo bo‘lishi uchun ma’lum bir talab va shartlar bajarilishi darkor. Bunday shartlardan biri milliy qonunchilik normalari Jahon savdo tashkilotining bitimlarida nazarda tutilgan me’yorlar bilan o‘zaro muvofiqlashtirilishini taqozo etmoqda.

Mazkur qonun loyihasiga binoan intellektual mulk, reklama va davlat boji bilan bog‘liq bo‘lgan qonunchilikni Jahon savdo tashkilotining tegishli bitimlariga muvofiqlashtirish nazarda tutilyapti.

Jumladan, intellektual mulk obyektlarini ro‘yxatga olish jarayonlarida ortiqcha qog‘ozbozlik va byurokratik to‘siqlarni bartaraf etish, davlat xizmatlarini ko‘rsatish jarayonlarini soddalashtirish maqsadida tovar belgisi, tovar kelib chiqqan joy nomi va (yoki) tovar kelib chiqqan joy nomidan foydalanish huquqi to‘g‘risidagi guvohnomalarni berish muddatini o‘n kundan bir kunga qisqartirish belgilanmoqda. Bunda obyekt muayyan davlat reyestrlarida ro‘yxatga olingan kunning o‘zida tegishli guvohnoma elektron shaklda tasdiqlangan holda beriladi.

Shu bilan birga, xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalarni davlat ro‘yxatidan o‘tkazganlik uchun o‘rnatilgan davlat boji miqdorini O‘zbekiston Respublikasi rezidentlari ta’sischiligida tashkil etiladigan tadbirkorlik subyektlarini davlat ro‘yxatidan o‘tkazganlik uchun belgilangan davlat boji miqdori bilan bir xil qilib belgilash nazarda tutilmoqda.

Qonun loyihasini moddama-modda ko‘rib chiqish chog‘ida deputatlar tomonidan bir qator savollar o‘rtaga tashlandi. Xususan, loyihaning nomi qizg‘in muhokamaga sabab bo‘ldi. Uzoq tortishuvlardan so‘ng uning nomi deputatlar tomonidan “O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga O‘zbekiston Respublikasi milliy qonunchiligining Jahon savdo tashkiloti bitimlariga muvofiqlashtirishni ko‘zda tutuvchi o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida” deb o‘zgartirish taklif etildi.

Loyihadagi ayrim normalar ham e’tirozlarga sabab bo‘ldi va bu bo‘yicha qonun tashabbuskorlaridan asoslantirilgan izoh so‘raldi. Berilgan tushuntirish to‘la-to‘kis bo‘lmagani sababli tegishli modda yetarli ovoz olmadi. Qonun loyihasining dolzarbligidan kelib chiqib, mas’ul qo‘mita uni yanada takomillashtiradigan bo‘ldi.

Qonun loyihasi Qonunchilik palatasining keyingi majlislarida ko‘riladi.

**Oliy Majlis Qonunchilik palatasi Parlament axborot markazi.**

# MILLIY MANFAATLAR USTUVORLIGI — ASOSIY MAQSAD

*Avval xabar berilganidek, siyosiy partiyalarning Oliy Majlis Qonunchilik palatasidagi fraksiyalari o‘tayotgan yildagi faoliyatini tanqidiy-tahliliy ko‘rib chiqqan holda, kelgusidagi ustuvor vazifalarni belgilab olmoqda.*

*O‘zbekiston “Milliy tiklanish” demokratik partiyasi fraksiyasi tomonidan o‘tkazilgan brifingda fraksiyaning 2023-yildagi faoliyati yuzasidan axborot berildi.*

## Sarhisob

Ta’kidlanganidek, hisobot davrida fraksiya turizm, maktabgacha ta’lim, umumiy o‘rta ta’lim tizimini rivojlantirish, o‘qituvchi va tarbiyachilar malakasini oshirish, ushbu sohalarga doir normativ-huquqiy hujjatlarni takomillashtirish hamda ta’sirchan parlament nazoratini o‘rnatishga alohida ahamiyat qaratgan.

O‘z navbatida, boshqa fraksiyalar bilan birgalikda 6 ta qonun loyihasi bo‘yicha tashabbus ko‘rsatdi. Mazkur qonun loyihalarini ishlab chiqishda fuqarolarning huquq va manfaatlarini to‘laqonli ifoda etish, mamlakatimiz sarhadlarini himoya qilishning huquqiy asoslarini mustahkamlash, joylardagi o‘rganishlar davomida aniqlangan muammo va kamchiliklarga qonuniy yechim topish, shuningdek, aholi tomonidan bildirilgan takliflarni inobatga olishga e’tibor berilgan. Ayniqsa, qonun loyihalarida inson kapitalini rivojlantirish, ta’lim tizimi ravnaqi uchun sharoit yaratish, oila institutini mustahkamlash hamda milliy manfaatlar ustuvorligini ta’minlashga qaratilgan normalarni aks ettirish masalalariga urg‘u berildi.

Brifingda fraksiya yig‘ilishlarida deputatlar tomonidan qonun loyihalari muhokamalarida saylovchilar huquq va manfaatlari bo‘yicha takliflar qat’iy bildirilgani va 50 ga yaqini ayrim loyihalarni takomillashtirish jarayonida inobatga olingani qayd etildi.

Mamlakatimizda ta’lim tizimini takomillashtirish, mamlakatning turizm salohiyatini oshirish borasidagi vazifalarning o‘z vaqtida, samarali bajarilishi yuzasidan mansabdor shaxslarning axborotini Qonunchilik palatasi majlislarida eshitish yuzasidan tashabbus bilan chiqish hamda qonun hujjatlari ijrosi ustidan parlament nazoratini o‘rnatish bo‘yicha muayyan ishlar amalga oshirilgani ta’kidlandi.

Ta’lim tizimidagi mavjud muammo va kamchiliklarni hal etish, sohada olib borilayotgan islohotlar samaradorligini oshirish, hududlardagi o‘rganishlar davomida aniqlangan tizimli kamchilik va muammolar yechimiga qaratilgan 1 ta “Parlament eshituvi” va 1 ta “Hukumat soati” o‘tkazildi.

O‘tgan davrda fraksiya a’zolarining saylov okruglaridagi faoliyati davomida o‘tkazilgan uchrashuvlarda fuqarolar ko‘targan dolzarb muammolar, deputatlarning hududlardagi o‘rganishlari davomida aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish, saylovchilarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini ta’minlash bilan bog‘liq masalalar yuzasidan davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlari rahbarlariga jami 16 ta deputat so‘rovi yuborildi.

Yakuniga yetayotgan yilda fraksiya tomonidan saylovchilar bilan doimiy muloqot qilish, ularni o‘ylantirayotgan tizimli muammolarni aniqlab, hal etishga ko‘maklashish, murojaatlar bilan ishlash, hududlarda ta’lim sifatini yaxshilash va sohaga doir qonunlar va davlat dasturlarining ijrosini o‘rganish hamda mavjud kamchiliklarga huquqiy yechim topish bo‘yicha ham muayyan ishlar amalga oshirilgan.

O‘tgan davrda fraksiya a’zolari nomiga fuqarolardan kelib tushgan jami 2482 ta murojaatdan 2439 tasiga ijobiy yechim topilgan bo‘lsa, qolgan 43 tasi ko‘rib chiqilmoqda.

Shu bilan birga, o‘tgan davrda fraksiya tomonidan qonun ijodkorligi, nazorat-tahlil yo‘nalishida amalga oshirilgan ishlar, deputatlarning saylov okruglaridagi faoliyati hamda boshqa tadbirlar haqida doimiy ravishda keng jamoatchilikka axborot berib borildi. Xususan, fraksiyaning o‘tgan davrdagi faoliyati ommaviy axborot vositalarida jami 8619 marotaba yoritildi.

Brifingda, shuningdek, “Milliy tiklanish” DP fraksiyasining kelgusi yildagi rejalari haqida ham axborot berildi.

**“Xalq so‘zi”.**

# “YASHIL” ENERGETIKA

## — mamlakatimiz taraqqiyotida muhim omil

1 Joriy yilning 27-dekabr kuni O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev “yashil” energetika sohasidagi yirik qo‘shma loyihalarni ishga tushirishga bag‘ishlangan tantanali marosimda ishtirok etdi. Unda davlatimiz rahbari mamlakatda “yashil” energetikani rivojlantirishning 2030-yilgacha strategik dasturi haqida muhim mulohazalarni bildirdi.

Aytilganidek, biz sohani isloh etishni, birinchi galda, Jahon banki, Osiyo taraqqiyot banki hamda Osiyo infratuzilmaviy investitsiyalar banki, Yevropa tiklanish va taraqqiyot bankining yetakchi ekspertlari bilan maslahatlashuvdan boshladik. Ayni chog‘da bir qator qonun hujjatlariga o‘zgartirishlar kiritish va yangi qarorlarni qabul qilish orqali energetika tarmog‘ida bozor tamoyillariga asoslangan mustahkam qonunchilik bazasi yaratildi. Sohada ma’muriy-buyruqbozlik mexanizmlari va monopoliyadan voz kechib, zamonaviy boshqariladigan ochiq va shaffof tizimga o‘tildi. Xususiy sektor va xorijiy kompaniyalarning kirib kelishi uchun qulay imkoniyatlar yaratildi.

Energetika vazirligi, shuningdek, har bir yo‘nalish bo‘yicha mas’ul va javobgar bo‘lgan yangi tashkilotlar tuzildi.

Ilk bor 100 foiz to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar hisobidan Karmana va Nurobod tumanlarida 2 ta quyosh fotoelektr stansiyasi ishga tushirilib, shu kunga qadar 1 mlrd. kVt-soat “yashil” elektr energiyasi ishlab chiqarildi.

Shu sa’y-harakatlarning mantiqiy davomi sifatida mamlakatimiz tarixida yana bir yorqin sahifa ochildi. Ya’ni umumiy quvvati ikki ming to‘rt yuz megavatt bo‘lgan oltita yirik quyosh va shamol elektr stansiyalari tarmoqqa ulanmoqda. Jumladan, O‘zbekistonning yaqin do‘sti, keng qamrovli hamkori bo‘lgan Birlashgan Arab Amirliklarining “Masdar” kompaniyasi tomonidan Jizzax, Samarqand va Surxondaryo viloyatlarida 3 ta quyosh fotoelektr stansiyasining birinchi bosqichi barpo etildi.

Bundan tashqari, ushbu nufuzli kompaniya tomonidan Tomdi tumanida tiklanayotgan zamonaviy shamol elektr stansiyasining 100 megavatt quvvati ishga tushirilmoqda. Qolaversa, “Gezhouba” kompaniyasi bilan Buxoro va Qashqadaryo viloyatlaridagi quyosh fotoelektr stansiyalarining dastlabki 400 megavattli generatsiyasi boshlanadi.

E’tiborli jihati shundaki, ushbu loyihalar davlat-xususiy sheriklik asosida, to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar hisobidan amalga oshirildi. Umumiy qiymati 2 mlrd. dollarlik bu loyihalar hisobidan yiliga 6 mlrd. kVt-soat elektr ishlab chiqarilib, 2 mlrd. kub metr tabiiy gaz tejaladi. Ayni chog‘da 2 million xonadon kafolatli elektr energiyasi bilan uzluksiz ta’minlanadi. Sanoat va xizmatlar sohasida esa 4 mlrd. dollarlik qo‘shilgan qiymat yaratiladi.

Bizning strategik sherigimiz va yirik savdo hamkorimiz bo‘lgan Xitoy ishtirokidagi loyihalar ilgari tajribada kuzatilmagan qisqa muddatda — 9 oy ichida ishga tushirilganini mamnuniyat bilan ta’kidlash zarur. Gap shundaki, jahonda ishlab chiqarish zanjiri va logistika bilan bog‘liq muammolar kuchayib borayotganiga qaramasdan, biz bu borada “Goldwind”, “Sungrow”, “Jolywood”, “Longi” kabi kompaniyalar bilan samarali ish olib bormoqdamiz.

Biz nima uchun “yashil” energetika rivojiga bu qadar katta rag‘bat va e’tibor qaratyapmiz? Chunki biz, eng avvalo, 2030-yilga borib sanoat hajmini ikki karra oshirishni, metallurgiya, neft-kimyo va mashinasozlik kabi sohalarni sifat jihatdan mutlaqo yangi darajaga ko‘tarishni o‘z oldimizga maqsad qilib qo‘yganmiz. Umumiy qiymati 150 mlrd. dollarlik 500 dan ziyod yirik sanoat va infratuzilma loyihalarini amalga oshirishni ko‘zlayapmiz.

Bu ulug‘vor niyatlarimizga erishish uchun bizga kafolatli va barqaror energiya resurslari suv va havodek zarur. Hisob-kitoblarga ko‘ra, kelgusi olti yilda mamlakatimizda elektr energiyasiga bo‘lgan talab hozirgi 83 milliarddan 120 milliard kilovatt-soatga o‘sishi kutilmoqda.

Bu, *birinchi galda,* qayta tiklanadigan energiya hisobidan qoplanadi.

*Ikkinchidan,* global muammoga aylangan iqlim o‘zgarishining salbiy ta’sirini yumshatish bo‘yicha tinimsiz izlanyapmiz. Xalqaro sammitlarda muhim taklif va tashabbuslarni faol ilgari suryapmiz. Yaqinda Dubayda BMTning Iqlim o‘zgarishi bo‘yicha konferensiyasi doirasida dunyo mamlakatlari “yashil” generatsiyani uch barobar oshirishga kelishib oldi.

O‘zbekiston bu tashabbusni to‘liq qo‘llab-quvvatlaydi va 2030-yilgacha “yashil” energetika manbalarini 27 gigavattga yetkazish uchun faol investitsiya siyosatini izchil davom ettiradi.

*Uchinchidan,* mamlakatimizda “yashil” energetika bo‘yicha nihoyatda ulkan salohiyat mavjud. Yaratganning o‘zi bergan bu buyuk imkoniyatdan unumli foydalanib, uni xalqimiz manfaatlariga yo‘naltirishimiz zarur.

Sohani rag‘batlantirish maqsadida quyosh panellari o‘rnatishga imtiyozli kredit va subsidiyalar ajratish, ishlab chiqarilgan elektr energiyasini kafolatli sotib olish bo‘yicha “Quyoshli xonadon” tizimi yo‘lga qo‘yildi. Shu yilning o‘zida yurtimizda 50 ming xonadon va tadbirkorlar tomonidan quyosh panellari o‘rnatildi. Mamlakatimizda 7 milliondan ortiq uy-joylar borligini hisobga olsak, bu investorlar uchun katta bozor yaratishini alohida qayd etish lozim.

*To‘rtinchidan,* hozirgi kunda global miqyosda “yashil” energiyadan ishlab chiqarilgan mahsulotlarga alohida ustunlik berilmoqda. “Yashil energiya” sertifikati keng joriy qilinmoqda.

O‘zbekiston kelgusida aniq reja va qat’iy sa’y-harakatlar orqali “yashil” energiyani Osiyo va Yevropa mamlakatlari bozoriga ham yetkazib berish bo‘yicha dastlabki qadamlarni tashlayapti.

Ta’kidlash kerakki, davlat rahbari yuqoridagi loyihalarni bajargan va unda ishtirok etgan hamkor davlatlar va kampaniyalarga xalqimiz nomidan minnatdorlik bildirdi. Shu bilan birga, xorijiy hamkorlarni “yashil” energetika sohasidagi butlovchi va ehtiyot qismlar ishlab chiqarishda mahalliy korxonalar bilan yaqin kooperatsiya aloqalarini yanada kuchaytirishga chaqirdi.

Prezidentimiz o‘z nutqi yakunida mazkur chora-tadbirlarni izchil davom ettirib, raqobatli bozor mexanizmlariga bosqichma-bosqich o‘tish, xususan, bu yo‘lda yaqinda energetika bozori regulyatorini yo‘lga qo‘yish bo‘yicha muhim qaror qabul qilinganligini, hozir yurtimizda 9 gigavattli 22 ta quyosh va shamol elektr stansiyalarini qurish loyihalari ustida jadal ish olib borilayotganligini, ayni chog‘da, yangi generatsiya quvvatlarini yetkazish uchun infratuzilmani yanada yaxshilashga alohida urg‘u berilajagini ta’kidlab o‘tdi.

Umuman olganda, mamlakatda aholi soni va daromadlari ko‘paymoqda. Bunday sharoitda, turgan gapki, energetika resurslariga bo‘lgan talab ham ortadi. “Yashil” iqtisodiyotning muhim komponenti qayta tiklanadigan energiya manbalarini yaratish va foydalanish hisoblanadi. Bu jihatdan O‘zbekistonning salohiyati ancha yuqori. Xalqaro moliyaviy institutlarning hisob-kitobiga qaraganda, respublikada muqobil energiya (ayniqsa, quyosh energiyasi)ning yillik zaxirasi 270 million tonna shartli yoqilg‘i ekvivalentiga teng. Bu real ehtiyojimizdan uch karra ko‘pni tashkil etadi. Boz ustiga, “yashil” energetika sohasidagi loyihalarni amalga oshirish O‘zbekistonda yaqin o‘n yilda qayta tiklanadigan energiya manbalari ulushini 3 barobardan ziyodga ko‘paytirish imkonini beradi. Bu iqtisodiyotimiz uchun mislsiz foyda keltiradi.

Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, mamlakatning “yashil” energetikaga jadallik bilan o‘tishi, avvalo, mintaqada ekologik muvozanatni ta’minlash, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va aholining energiyaga bo‘lgan ehtiyojini ta’minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

**Abdug‘ani SANGINOV,**
**Oliy Majlis Senati a’zosi.**

# KINO SAN’ATIGA YUKSAK E’TIBOR SAMARALARI

*“Agar biz ajdodlarimiz xotirasini ulug‘lamoqchi, shu asosda o‘zbek nomini, O‘zbekiston nomini butun dunyoga tarannum etmoqchi ekanmiz, bu ishni birinchi navbatda kino san’ati orqali amalga oshirishimiz kerak. Aynan kino san’ati orqali jahon ekranlarini zabt etishimiz, shu yo‘l bilan dunyo ahlining diqqat-e’tiborini qozonishimiz mumkin”.*

*Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning ushbu fikrlari kino san’atining ma’naviy hayotimizda o‘rni va ahamiyati nihoyatda yuksak ekanini yaqqol ifodalaydi.*

*Davlatimiz rahbari raisligida 22-dekabr kuni o‘tkazilgan Respublika Ma’naviyat va ma’rifat kengashining kengaytirilgan yig‘ilishida ham madaniyat sohasining barcha tarmog‘i qatori kino san’atini yanada rivojlantirish masalasiga alohida urg‘u berildi, ayni yo‘nalishda aniq topshiriq va vazifalar belgilandi.*

*O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi huzuridagi Kinematografiya agentligi direktori Firdavs ABDUXOLIQOV bilan suhbatimiz ana shu masalalarning mazmun-mohiyati, sohada erishilayotgan natijalar va oldinda turgan vazifalar xususida bo‘ldi.*

## Bizning suhbat



***— Avvalo, keyingi yillarda Kinematografiya agentligi tizimida yuz berayotgan o‘zgarishlar xususida qisqacha to‘xtalib o‘tsangiz.***

— Prezidentimiz raisligida o‘tgan anjuman, unda bildirilgan taklif va tashabbuslar, belgilab berilgan dolzarb vazifalar milliy kino san’atimiz taraqqiyotida yangi davr boshlanganidan dalolat. Bu bizni bag‘oyat xursand qilishi bilan birga, zimmamizga katta mas’uliyat ham yukladi.

Davlatimiz rahbari ko‘rsatmasiga binoan kelgusida amalga oshiriladigan ishlar sohada bundan olti-yetti yil avval boshlangan tub islohotlarning mantiqiy davomidir. Zotan, Yurtboshimizning bevosita e’tibori va g‘amxo‘rligi ostida mamlakatimizda barcha ma’naviy-ma’rifiy, madaniy soha qatori kino san’ati ham har taraflama rivojlanib bormoqda.

Kino sohasida so‘nggi olti yilda erishgan yutuqlarimizni ko‘z oldimizga keltirsak, misli ko‘rilmagan o‘zgarishlar ro‘y berganiga yana bir bor amin bo‘lamiz. Olib borilgan tizimli ishlar natijasida bugun soha ijodkorlariga qulay shart-sharoitlar yaratildi. Jumladan, “O‘zbekfilm” pavilyoni, “Kinochilar uyi”da amalga oshirilgan ulkan bunyodkorlik ishlari, milliy filmlarimizning son va sifat jihatdan yuksalib borayotgani, xorijiy kinofestivallarda erishayotgan yutuqlarimiz, Toshkent shahrida “S. A. Gerasimov nomidagi Butunrossiya davlat kinematografiya instituti” federal davlat budjeti oliy ta’lim muassasasi filialining ochilishi, Milliy kino fondi, Milliy kino muzeyining yangi binolari ishga tushirilishi — bularning barchasi haqida uzoq gapirish mumkin.

Ayni damda Kinematografiya agentligi tomonidan O‘zbekistonning turizm salohiyatini ommalashtirish, yurtimizdagi madaniyat, san’at, turizm va madaniy meros sohalarida olib borilayotgan islohotlar bilan xalqaro hamjamiyatni tanishtirish borasida qator ishlar bajarilmoqda. Xususan, xorijiy ijodkorlar bilan birgalikda kinomahsulotlar ishlab chiqarish, xorijiy telekanallar bilan hamkorlikda ishlash, Vatanimizning tarixiy merosi va tarixiy shaxslari haqida turistik salohiyatimizni targ‘ib qiladigan milliy mahsulotlarni yaratish, Toshkent xalqaro kinofestivali orqali kino turizmini rivojlantirish borasidagi salmoqli ishlar shular jumlasidandir.

Ta’kidlash o‘rinliki, sohada amalga oshirilayotgan ishlar o‘z samarasini berayotir. Kinomahsulotlarimiz son va sifat jihatdan tobora yuksalib bormoqda. Kinematografiya agentligi buyurtmasiga asosan, yil davomida 113 ta kinoloyiha hayotga muvaffaqiyatli tatbiq etildi. Pirovardida 21 ta badiiy film, 74 ta hujjatli film, 10 ta multfilm, 250 qismdan iborat 10 ta serial, 37 ta qisqa metrajli film, jami 392 ta kinomahsulot yaratildi. Joriy yilda 2017-yildagiga nisbatan ishlab chiqarish ko‘rsatkichlari qariyb 300 foizga oshgan.

***— “Ko-produksiya” atamasi keyingi yillarda kino sanoatimizda tez-tez tilga olinmoqda. Bu borada qilinayotgan ishlar ham salmoqli bo‘lsa kerak?***

— Prezidentimiz yig‘ilishda alohida ta’kidlaganidek, butun dunyoda kino nafaqat ijod, balki iqtisodiyot tarmog‘i hamdir. Ko-produksiya — ana shu jarayon mevasi, boshqacha aytganda, hamkorlikda yaratilgan kinomahsulot degani. Keyingi yillarda turli vazirlik va idoralar bilan, shuningdek, xorijiy hamkorlar bilan suratga olinayotgan mahsulotlarimiz soni tobora ortib bormoqda. 2017-yilda xalqaro ko-produksiya, ya’ni xorijiy kinoustalar ishtirokida birorta kinoloyiha yaratilmagan bo‘lsa, joriy yilda ishlab chiqarilgan va ushbu jarayonda bo‘lgan kinomahsulotlar soni 25 tani tashkil etadi. Shundan bittasi badiiy, 22 tasi hujjatli, 2 tasi animatsion filmdir.

Jumladan, mashhur kinoprodyuser va rejissyor Timur Bekmambetov bilan “Xo‘ja Nasriddin” global loyihasi amalga oshirilmoqda. Mazkur rejissyor bilan hamkorlikda “Matonat maktabi” turkumidan Tokiodagi Paralimpiya o‘yinlari sovrindori, jahon chempioni Asila Mirzayorova haqida animatsion film yaratildi.

O‘zbekistonning turistik salohiyati haqida Turkiya, Rossiya, AQSH va italiyalik hamkorlar bilan birga qator filmlar yaratilib, “TRT”, “Rossiya-Kultura” kabi telekanallar orqali efirga uzatildi.

Mahalliy ko-produksiya loyihalari asosida ishlab chiqarilgan va ishlab chiqarish jarayonida bo‘lgan kinomahsulotlar soni ham ortib bormoqda. Xususan, yurtimizdagi qator idora va tashkilotlar bilan hamkorlikda 13 ta badiiy, 2 ta animatsion film, 235 qismdan iborat 9 ta serial suratga olinmoqda. Masalan, Samarqand viloyati hokimligi bilan “Bahodir Yalangto‘sh”, Farg‘ona viloyati hokimligi bilan “Osiyo arsloni”, Xorazm viloyati hokimligi bilan birgalikda Pahlavon Mahmud haqida “Xiva Langari” kabi badiiy filmlar shular jumlasidan.

Shuningdek, zamonaviy qahramonlar haqida turli vazirlik va idoralar hamkorligida “Uch qahramon” (Ichki ishlar vazirligi bilan), “Pandemiya” (Sog‘liqni saqlash vazirligi), “Qora tuynuk sxemasi” (Soliq qo‘mitasi) singari kinoloyihalarni suratga olish ishlari davom etyapti.

***— Prezidentimiz raisligida o‘tgan yig‘ilishda “Tirik tarix” turkumida Vatanimizning shonli o‘tmishiga bag‘ishlangan filmlar yaratish dasturi haqida ham so‘z bordi. Bu turkumning ahamiyati nimadan iborat?***

— O‘zbekiston azaldan buyuk sivilizatsiyalar, jahon tamadduniga munosib hissa qo‘shgan ulug‘ allomalar, jasur sarkardalar va yetuk davlat arboblari yurti hisoblanadi. Ushbu ulug‘vor tarixni, boy madaniy merosni mamlakatimiz va xalqaro miqyosda targ‘ib qilishda kino muhim o‘rin tutadi.

Ayni paytda Prezidentimiz “Tirik tarix” turkumida Vatanimiz o‘tmishi, bobolarimiz hayoti va faoliyatiga bag‘ishlangan filmlar yaratish taklifini bergani ayni muddao bo‘ldi. Aytish joizki, bu borada hozirga qadar agentligimiz tomonidan bir qancha ishlar bajarildi. Vatanimiz uzoq va yaqin tarixi haqida hikoya qiluvchi “Elparvar”, “Islomxo‘ja”, “Ibrat”, “Ilhaq”, “O‘zbek qizi” singari qator badiiy filmlar suratga olindi. “Adiblar xiyoboni” turkumida 25 qismdan iborat hujjatli kinoserial tasvirga olindi. Shuningdek, mazkur xiyobonda haykallari tiklangan adib va shoirlarimiz haqida “Muqimiy”, “Yo‘lbarsning tug‘ilishi”, “Abdulla Oripov”, “Avloniy”, “Behbudiy”, “Muhabbat bahori”, “Said bilan Saida” singari badiiy filmlar yaratildi. Yana bir qator loyihalar bo‘yicha ishlar boshlab yuborilgan.

2024 — 2030-yillar davomida mazkur yo‘nalishda yana 50 ta film yaratishni mo‘ljallayapmiz. “Tirik tarix” turkumi yurtimizning qadimgi madaniyati va ilk davlatchilik an’analaridan to mamlakatimiz mustaqillikka erishgunga qadar bo‘lgan salmoqli davrni o‘z ichiga qamrab oladi. Biz ushbu turkumni yaratish uchun ssenariynavislar, kinorejissyorlar, prodyuserlar, ijrochilar — juda katta ijodiy va texnik jamoalarni shakllantirishimiz kerak. Xullas, Prezidentimiz biz kinoijodkorlar zimmasiga yuklagan ushbu vazifalarni bajarishga barcha kuch va imkoniyatlarimizni safarbar etamiz.

***— Sohada erishilayotgan yutuqlar salmog‘ini nufuzli kinofestivallarda qo‘lga kiritilayotgan mukofotlar ham belgilaydi...***

— Haqiqatan ham, shunday. Qiyos uchun aytsak, 2017-yilda bitta xalqaro mukofot qo‘lga kiritilgan bo‘lsa, joriy yilda 24 ta xalqaro kinofestivalda ijodkorlarimiz ishtirok etdi va dunyoviy maqomdagi mukofotlar soni 56 tani tashkil qildi. Shundan 15 tasi oliy mukofotlardir. Jumladan, rejissyor Yolqin To‘ychiyevning “Evrilish” badiiy filmi MDH Ijroiya qo‘mitasi ta’sis etgan, yilning yagona va bosh mukofoti — “Chegarasiz kino” maxsus mukofotini qo‘lga kiritdi. Yaqinda yosh rejissyorimiz Shokir Xoliqov suratga olgan “Yakshanba” badiiy filmi Hindistonda o‘tkazilgan nufuzli xalqaro kinofestivalda “Eng yaxshi rejissyor” mukofotiga sazovor bo‘ldi. Mazkur film Shanxay kinofestivalida ham “Eng yaxshi film” deb e’tirof etilgan edi.

Kuni kecha poytaxtimizdagi an’anaviy “Oltin humo” milliy mukofotini ham o‘z egalariga tantanali ravishda topshirdik. Unda o‘tgan yili suratga olingan eng yaxshi filmlarimiz ijodkorlari o‘ndan ortiq nominatsiyalar bo‘yicha mukofotlanishdi.

Xalqaro yo‘nalishdagi ishlarni yanada rivojlantirish maqsadida O‘zbekistonda 11 ta davlatning kino kunlari o‘tkazildi. Shuningdek, 14 ta xorijiy mamlakatda O‘zbekiston kino kunlari tashkil etildi. 16 — 27-may kunlari Fransiyaning Kann shahrida 76-Kann xalqaro kinofestivali doirasida “O‘zbekiston milliy pavilyoni” faoliyat olib bordi.

Sohadagi yutuqlarni targ‘ib qilishda turli kino oyliklari, uchrashuvlarning ahamiyati katta. Shu bois agentlik tomonidan mamlakatimiz bo‘ylab muntazam ravishda kino oyliklari, kinonamoyishlar, bayram tadbirlari, “Kinokarvon” aksiyasi, ijodiy uchrashuvlar o‘tkazish an’anaga aylangan. Tomoshabinlar o‘zlari sevgan qahramonlar, kinoijodkorlar, aktyor va aktrisalarni nafaqat ekranda, balki hayotda ham yuzma-yuz ko‘rgisi, suhbatlashgisi keladi. Joriy yilning o‘zida joylarda tashkil etiladigan ana shunday uchrashuvlarga 200 dan oshiq taniqli kinoijodkorlar jalb qilindi. Ayni vaqtgacha jami sakkiz mingga yaqin turli tadbirlar o‘tkazilib, ularda 1 million 400 mingga yaqin yurtdoshlarimiz qamrab olindi.

Bundan tashqari, milliy telekanallarda o‘ndan oshiq badiiy, 20 dan ortiq hujjatli filmlarning premyeralari o‘tkazildi. Shuningdek, bayram kunlarida, kino oyliklari doirasida yuzga yaqin filmlar namoyish qilindi. Ayni paytda davom etayotgan “Yangi O‘zbekiston — yangi kino” kino kunlari doirasida 20 ta tadbir va 65 ta film namoyishi o‘tkazilishi rejalashtirilgan.

***— Prezidentimiz tashabbusi bilan qayta tiklangan Toshkent xalqaro kinofestivali sohada qanday o‘zgarishlarga zamin bo‘ldi?***

— “Ipak yo‘li durdonasi” Toshkent xalqaro kinofestivalining qayta tiklanishi sohada jahon tajribasini o‘rganishimizga turtki berayotgani bilan birga, milliy san’atimizni dunyo miqyosida targ‘ib qilishga keng yo‘l ochmoqda. Mazkur anjumanning nufuzi ham, unda qatnashuvchilar soni ham yil sayin oshyapti.

Tugayotgan yilning 29-sentabr — 2-oktabr kunlari o‘tkazilgan XV kinofestivalda 52 ta davlatdan 300 dan ziyod kinoijodkorlar ishtirok etgani so‘zimiz isboti. Ular bilan hamkorlikda kinoloyihalarni amalga oshirish bo‘yicha 10 dan ortiq memorandumlar imzolandi. Ushbu san’at anjumani doirasida 300 dan ortiq tadbirlar — film namoyishlari, mahorat darslari, ijodiy uchrashuvlar, forumlar, pitchinglar tashkil qilindi. Ilk bor milliy va Markaziy Osiyo filmlari tanlovlari o‘tkazildi. Emir Kusturitsa, Kevin Speysi, Kshishtof Zanussi, Pyetro Marchello, Aleksandr Sokurov kabi jahonga mashhur kino namoyandalari ishtirokida 50 dan ortiq mahorat darslari va ijodiy uchrashuvlar uyushtirildi. Kinofestival ishtirokchilari bilan birgalikda Prezidentimiz nomiga minnatdorlik murojaatnomasi yo‘llandi. Unda yangi O‘zbekiston kino san’atining yutuqlari alohida e’tirof etildi.

Shuni ta’kidlab o‘tish kerakki, yangi O‘zbekistonning tajribasidan ilhomlangan holda MDH davlatlarida ham xalqaro kinofestivallar tashkil qilinmoqda. Joriy yilda Tojikiston, Turkmaniston, Qirg‘iziston, Ozarbayjonda ilk bor xalqaro kinofestivallar o‘tkazildi.

***— Yangi yilda agentlik nimalarni o‘z oldiga maqsad qilib qo‘ymoqda?***

— Prezidentimiz yig‘ilishda milliy seriallar ishlab chiqarish konsepsiyasini yaratish zarurligini ta’kidladi. Unda, avvalambor, mahalliy ijodkorlarimizga, xususan, ijrochi san’atkorlar, dramaturg va rejissyorlarimiz uchun zamonaviy sharoitlar yaratishga alohida e’tibor qaratiladi.

Davlatimiz rahbari ko‘rsatmasiga muvofiq, davlat-xususiy sheriklik asosida Toshkent viloyati hududida 50 gektar maydonda “Cinema-park” tashkil etishga kirishiladi.

Yangi yilda ham yangi O‘zbekiston va uchinchi Renessansning madaniy asoslarini mustahkamlashga xizmat qiladigan, yurtdoshlarimiz, ayniqsa, yosh avlodning ma’naviy olamini boyitadigan, ularni Vatanimiz va xalqimizga fidoyi, sadoqatli, milliy hamda umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalashga qaratilgan, jahon kino bozorlarida raqobatbardosh, badiiy jihatdan yuksak 400 taga yaqin kinomahsulotlar ishlab chiqarish rejalashtirilmoqda. Bu esa 2023-yildagiga nisbatan salkam ikki yarim baravar ko‘p, demakdir.

Shundan vazirlik va idoralar bilan hamkorlikda 59 ta kinoloyiha (179 ta kinomahsulot), telekanallar bilan birgalikda 10 ta serial, “Tirik tarix” kinoloyihalar dasturi doirasida 10 dan ziyod tarixiy kinoloyihalar, hukumat topshiriqlari asosida yil davomida kelib tushadigan mavzular bo‘yicha 30 dan ziyod kinoloyihalar xorijiy va mahalliy hamkorlarning takliflariga asosan 30 ta ko-produksiya loyihalari, Milliy kinematografiyani rivojlantirish markazi tomonidan pitching asosida ishga tushiriladigan 20 ta kinoloyiha, “Yangi O‘zbekiston kinosolnomasi”ning 24 ta soni, vazirlik, idora, hokimlik, tashkilotlar buyurtmasiga binoan 50 ta xronikal film, “Kino 5 kunda” loyihasi doirasida 20 ta film suratga olinishi ko‘zda tutilmoqda. Ta’lim muassasalari uchun 50 ta o‘quv-uslubiy film suratga olinadi. Davlatimiz rahbari topshirig‘i asosida O‘zbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markazi uchun xalqaro formatda (“BBC” formatida) mashhur xalqaro telejurnalistlar va kino yulduzlari ishtirokida 30 dan ortiq videokontentlar yaratiladi.

Shuningdek, yangi yilda xorijiy, jumladan, MDH va Turkiy davlatlar tashkilotiga a’zo mamlakatlarning kinokompaniyalari, ijodkorlari bilan qo‘shma loyihalar asosida 10 ga yaqin filmlar tasvirga tushiriladi. Bu ishga mahalliy va xorijiy hamkorlar hisobidan 3 mln. AQSH dollari miqdorida mablag‘ jalb etilishi rejalashtirilmoqda.

“Kinochilar uyi” bazasida Yoshlar kinoklasteri tashkil qilinadi. Bu yerda O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti, Kamoliddin Behzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn instituti, “Butunrossiya davlat kinematografiya instituti” federal davlat budjeti oliy ta’lim muassasasi Toshkent filiali talabalari hamda mustaqil yosh kinoijodkorlar uchun milliy hamda xorijiy kinoijodkorlar ishtirokida mahorat darslari, pitchinglar, kino namoyishlari va taqdimotlari, “Debyut” kinofestivali o‘tkaziladi. Yoshlar tomonidan 30 dan ziyod qisqa metrajli va 16 ta badiiy film, “Zumrasha” kinojurnalining 10 qismini suratga olish ta’minlanadi. Xalqaro animatsiya maktabining Toshkentda yana bir filiali, Nukus va Buxoro shaharlarida ilk animatsiya maktablari ochiladi. Ularda 100 nafardan ortiq yoshlar qamrab olinadi.

***— Yangi yilda “O‘zbekfilm” kinostudiyasi tashkil etilganiga yuz yil to‘ladi. Bu sanaga ham munosib hozirlik ko‘rilyaptimi?***

— “O‘zbekfilm” kinokonsernining 100-yilligi 2024-yilda XVI Toshkent xalqaro kinofestivali doirasida keng nishonlanishi ko‘zda tutilgan. Ushbu sana munosabati bilan yangi liboslar va rekvizitlar sexi quriladi. Salkam 25 million yevro qiymatidagi zamonaviy texnikalar keltirib o‘rnatiladi. “O‘zbekfilm” tarixiga bag‘ishlangan maxsus filmlar suratga olinadi, kitob-albom nashr qilinadi.

Shuningdek, yangi yilda Hujjatli va xronikal filmlar kinostudiyasining 90-yilligi ham keng nishonlanadi. Shu bilan birga, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari, vazirlik va idoralarning buyurtmasiga asosan “Yangi O‘zbekiston kinosolnomasi”ni xronikal tasvirga olish bo‘yicha yangi tizim joriy etiladi.

Xullas, kelgusida qiladigan ishlarimiz juda ko‘p, rejalarimiz ulkan. Ularning ro‘yobi xalqimizning ma’naviy saviyasini yanada oshirishi, milliy g‘ururini o‘stirishi, badiiy didini charxlashi, kino san’atimizning dovrug‘ini ko‘tarishi, yoshlarimizga bilim, tajriba va faxr-iftixor bag‘ishlashi bizni yangi kuch, yuksak ilhom bilan oldinga dadil odimlashga undayveradi.

**Rustam JABBOROV**
**(“Xalq so‘zi”) suhbatlashdi.**

# Piyodalar o‘tish yo‘li: qulay va xavfsiz

*Muhammad Iqbol ko‘chasi Buxoro shahrining eng gavjum go‘shalaridan sanaladi. Xususan, uning Buxoro davlat universiteti joylashgan qismi juda tirband. Aynan shu yerda umumiy qiymati 6,4 milliard so‘m bo‘lgan yer osti piyodalar o‘tish yo‘li barpo etildi.*

## Infratuzilma

— Keyingi yillarda oliy o‘quv yurtimizda tahsil olayotgan talabalar soni bir emas, bir necha baravar oshdi, — deydi BuxDU professori, tarix fanlari doktori Sulaymon Inoyatov. — Ularning, umuman, yo‘lovchilarning avtotransport vositalari bilan tirband yo‘ldan bexavotir o‘tishlari uchun shunday inshootga ehtiyoj sezilayotgandi. Viloyat hokimligi tashabbusi va tegishli korxonalar sa’y-harakati bilan ajoyib me’moriy yechimga ega yer osti o‘tish yo‘li foydalanishga topshirildi. Shu munosabat bilan tashkil etilgan bayramona tadbirda qatnasharkanman, mazkur inshoot nafaqat harakat xavfsizligini ta’minlashga, balki yoshlarimiz estetik didini oshirishga ham xizmat qiladi, degan fikrga keldim. Chunki uning qurilishida milliylik va zamonaviylik uyg‘unlashtirilgan.

Aytish joizki, Yangi yil arafasida magistral yo‘l bo‘yidagi Buxoro tumani markazi — Galaosiyoda, Buxoro shahridagi Qayum Murtazoyev ko‘chasida joylashgan markaziy dorixona binosi oldida, “Jondor” avtoshohbekati ro‘parasida ham shunday inshootlar qurilib, foydalanishga topshirildi.

**Istam IBROHIMOV**
**(“Xalq so‘zi”).**

Islom Karimov nomidagi ilmiy-ma’rifiy majmua jamoasi majmua rahbarining o‘rinbosari Sevar Tursunovaga turmush o‘rtog‘i **Jur’at MAQSUMOVning** vafoti munosabati bilan chuqur hamdardlik bildiradi.

Xalq so‘zi
Narodnoe slovo

MUASSISLAR:
O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi Kengashi
O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashi

Bosh muharrir O‘tkir RAHMAT

2020-yil 25-martda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida 0001-raqam bilan ro‘yxatga olingan. Nashr indeksi — 229. Buyurtma G 1241.32 472 nusxada bosildi. Hajmi — 2 taboq. Ofset usulida bosilgan. Qog‘oz bichimi A-2. Bahosi kelishilgan narxda.

Gazetamiz haqidagi ma’lumotlarni yuklab olish uchun QR-kodini telefoningiz orqali skaner qiling.

TELEFONLAR:
Devonxona 71-259-74-51; kotibiyat 71-259-74-53; e’lonlar 71-259-74-55.

ISSN 2010-8788

Tahririyatga kelgan qo‘lyozmalar taqriz qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.

Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.

Gazeta tahririyat kompyuter markazida terildi hamda operator M. Begmuratov tomonidan sahifalandi.

Gazetaning poligrafik jihatdan sifatli chop etilishiga “Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi mas’ul.
Bosmaxona telefoni: 71-233-11-07.

MANZILIMIZ:
100066,
Toshkent shahri,
Islom Karimov ko‘chasi, 55-uy.
Navbatchi muharrir F. Bozorov.
Musahhih S. Islomov.

“Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasi. Korxona manzili:
Buyuk Turon ko’chasi, 41. O‘zA yakuni — 21.20 Topshirildi — 00.05 1 2 3 4 5 6